

YANGI O'ZBEKISTON ARMIYASI – MAMLAKAT TAYANCHI, XALQIMIZ FAXRI!



# VATANPARVAR

Gazeta 1992-yilning  
24-iyunidan chiqa  
boshlagan

2025-yil 28-mart  
№13 (3127)

MILLIY ARMIYAMIZ YANGI O'ZBEKISTONNING MUSTAQILLIK DARDIR!

[www.mv-vatanparvar.uz](http://www.mv-vatanparvar.uz)



**MAYSALARING SHIVIRLADI,  
TIZLAR CHO'KDIM, QULOQ BERDIM,  
VATAN NE, DEB SO'RGANLARGA  
BIR KAFTGINA TUPROQ BERDIM.**

MAHMUD TOIR



IJTIMOIIY-SIYOSIY, MA'NAVIY-MA'RIFIY, HARBIY-VATANPARVARLIK GAZETASI

[t.me/mv\\_vatanparvar\\_uz](https://t.me/mv_vatanparvar_uz)  
[vatanparvar-bt@mail.uz](mailto:vatanparvar-bt@mail.uz)  
[facebook.com/mudofaavazirligi](https://facebook.com/mudofaavazirligi)



[t.me/mudofaavazirligi](https://t.me/mudofaavazirligi)  
[instagram.com/mudofaavazirligi](https://instagram.com/mudofaavazirligi)  
[youtube.com/c/uzarmiya](https://youtube.com/c/uzarmiya)



## “Eng ilg‘or jangchi”



## “HAR KIMNING ICHIDA BIR JANGCHI BOR.”

Sizdan jangchi chiqadimi? Shu haqda hech o‘ylab ko‘rmaganmisiz? Bu masalaga jiddiy qarash kerak, aka. Sovuqqon bo‘lmang. Ruhingizni chiniqtiring. O‘shanda siz eng zo‘ri bo‘lasiz. Chunki har bir qalbdan bir botir bor, deyishadi. Ajab emas, yillar davomida jismingizda orom olib kelayotgan “jangchi” daf‘atan hayqirsa.

Xullas, bu mavzuda keyinchalik ham gurunglashamiz. Qolaversa, men sizga ishonaman. Albatta, o‘z-o‘zingizni kashf etasiz.

Yaqinda AQShning Missisipi shtati “Camp Shelby” harbiy-o‘quv bazasida “Eng ilg‘or jangchi – 2025” musobaqasi bo‘lib o‘tdi. Unda bizning vakillar ham qatnashdi. Ha, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi harbiy xizmatchilari – kichik serjant Alishoh Abdullaev va III darajali serjant Shohrux Jovkashevdan iborat juftlik.

Bahslar bir necha kun davom etdi. Harbiy xizmatchilarimiz yakka tarkibda jismoniy tayyorgarlik sinovlarida musobaqaga kirishdi. Bu shart o‘z ichiga **6 ta mashqni qamrab olgan**. Shuningdek, jismoniy va ruhiy zo‘riqish yo‘lagidan o‘tish va tunda 15 kilometr masofaga oriyentirlash shartlarida mahoratlarini amalda ko‘rsatdi.

15 kilogramm yukni ko‘targan holda 20 kilometr masofaga marsh yugurishda kimning irodasi mustahkam, kim mahoratli ekani yuzaga chiqdi. Jangovar va umumiy tayyorgarlik bo‘yicha test sinovlari, insho yozish (*harbiy hamkorlik mavzusida 500 tadan kam bo‘lmagan so‘z*), artilleriya olovini boshqarish, AQSh namunasidagi o‘qotar qurollarni noto‘liq qismlarga yoyish, yig‘ish va jangovar shay holatga keltirish kabi vazifalar ham **o‘zbek o‘g‘lonlarining ajdodlariga munosib voris ekanini namoyon etishga xizmat qildi**. Qatnashchilarning merganlik mahorati esa turli usul va sharoitlarda o‘q otish shartida baholandi. Tibbiy tayyorgarlik, ommaviy qirg‘in qurollaridan himoyalaniish, kutilmagan (*syurpriz*) mashqlar ham jamoamiz tomonidan ishonch bilan bajarildi.

– Musobaqada 20 ta jamoa ishtirok etdi, – deydi kichik serjant Alishoh Abdullaev. – Ta’kidlash kerakki, har bir qatnashchi bahslarga jiddiy hozirlik ko‘rgani ilk shartlardayoq namoyon bo‘ldi. Shunday bo‘lsa-da, bor salohiyatimizni ishga solib, munosib kurash olib bordik. Albatta, bunda ustoz va komandirlarimiz ko‘magida egallagan harbiy bilim va ko‘nikmalar qo‘l keldi. Men ana shu musobaqalarda bir xulosaga keldim: kim o‘z kasbining haqiqiy ustasi bo‘lishni istasa, unda o‘rganishdan, izlanishdan va eng asosiysi, xato qilishdan qo‘rqmasligi kerak. Chunki yangi bilimlarni egallamay, uni nazariy yoki amaliy jihatdan qo‘llamay turib, tajriba orttira olmaysiz. **Va yana har kimning ichida bir jangchi bor.**

**Faqat uni vaqtida “uyg‘ota” olish kerak, xolos. Dengiz ortidagi bahslarda esa ichimizdagi o‘sha “jangchi”larni kashf etib, hayqirtirdik.** Bundan keyin bu shijoatning so‘nishiga aslo yo‘l qo‘ymayman. Bir soniya bo‘lsinki, o‘rganishdan to‘xtamayman. Chunki gardanimda Vatanimning tinchligini asrashdek ulug‘vor mas’uliyat bor. Demak, bizning xotirjamlikka berilishga haqqimiz yo‘q.

Aytdim-ku, inson o‘ziga, kuch va imkoniyatlariga to‘liq ishonsa, yo‘lda uchragan turli to‘siq va qiyinchiliklarga bardosh bera olsa, qaytmasa, u albatta muvaffaqiyat qozonadi. Bunga misol qilib, “Eng ilg‘or jangchi” musobaqasini keltirish mumkin. Bir o‘ylab ko‘ring, o‘zga muhit, o‘zga sharoitda olib borilgan bellashuvlarda ishtirok etish kishini ruhini qanchalar sinovdan o‘tkazadi. Chunki odam bir joyga moslashishiga bir necha kun kerak bo‘ladi. Ammo harbiy xizmatchilarimizga atigi ikki kun vaqt berilgan.

Lekin shunday bo‘lsa-da, qalbi yurtning dardida fig‘on urgan azamatlar egallagan bilimlariga ishonib, bildirilgan ishonchni oqlash uchun qiyinchiliklarga e’tibor qaratmadi. Olg‘a yurdi. To‘siqlarni matonat bilan yengib o‘tdi. Dengiz ortidagi raqiblarini o‘z yurtida, o‘z qurollari



imkoniyatlaridan tezkor foydalanib, mag‘lub etdi. Berilgan shartlarni kutilganidan-da, a’lo darajada bajardi. Boisi ularning tomirida dunyoni lol qoldirgan bobolarimiz qoni oqmoqda. Nigohlarida ularning qat’iyati ufurib turibdi.

– Bilasizmi, har bir ustoz uchun o‘z shogirdlarining muvaffaqiyatlarini ko‘rishdan ortiq baxt bo‘lmasa kerak, – deydi III darajali serjant Abdurasul Tuyg‘unov. – Bugun men ham ana shu hislar qurshovidaman. Chunki mehnatlarimiz besamar ketmadi. Ikki nafar safdoshim, izdoshim va eng muhimi shogirdlarim musobaqada g‘alaba qozonib qaytdi. Ushbu bahslarda men ham 2023-yilda ishtirok etganman. O‘shanda shaxsan o‘zim bir qancha shartlarda rekordlar o‘rnatgan edim. Bugun esa u natijalarni shogirdlarim yangiladi. O‘zi umuman, harbiylarimiz mazkur bahslarda yangidan yangi rekordlarni qayd etib kelyapti. Lekin shartlar murakkab. Hamma ham ularni birdek bajara olmaydi. Kerak bo‘lsa, yillar davomida tayyorgarlik ko‘rish kerak. Biroq





## FAQAT...



Vatan sha'ni va obro'yini or bilan yuksaltirib, safdoshlarimiz ana shu kurashlarda bir necha yildan buyon birinchilikni qo'ldan bermay kelyapti. Demak, harbiy xizmatchilarimiz jangovar shayligi, jismoniy imkoniyati va ruhiy chidamliligi bu musobaqada har safar o'zbek o'g'lonlari sharaflanib, e'tirof etiladi.

Ta'kidlash kerakki, **harbiy xizmatchilarimiz "Eng ilg'or jangchi" musobaqasida 5 yildan buyon ishtirok etib, yuqori natijalarni qayd etib kelmoqda.** Bu yutuqlar zahirida esa hukumatimiz tomonidan barcha sohalar singari milliy armiyamizning kuch-qudratini yanada oshirish, saflardagi harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilish borasida olib borilayotgan sa'y-harakatlar yotibdi.

– Jangchiga berilgan vazifa qanday sharoit va muhitda bo'lsin, yuqori darajada bajarilishi kerak, – deydi III darajali serjant Shohrux Jovkashev. – Chunki u shunga o'rgatiladi va o'qitiladi. Bunda bahonalar ketmaydi. Ayrimlar hayajonga berildim, deydi. Men

bu fikrga qo'shilmayman. Chunki undaylar qo'rquv ta'siriga tushib qolgan bo'ladi. Shuning uchun biz kundalik mashg'ulotlarda ruhiy quvvatni oshirish, o'zimizga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga jiddiy ahamiyat qaratamiz. Natija esa hozircha yomon emas. Va bundan keyin ham o'zimdagi ana shu darajani ushlab qolishga astoydil harakat qilaman. Musobaqa xususida to'xtaladigan bo'lsam, shartlar haqiqiy vaqt mezonlari asosida olib borildi. Shuning uchun tana a'zolari bilan birga aqlni ham birlashtirish kerak edi va biz shunday qildik. Marraga borish, nishonlarni tezkor yo'q qilish, tunda harakatlanish, xullas, har bir jarayonda nafaqat jismoniy imkoniyatlar sinovdan o'tadi, balki bilimingiz ham vaziyatni o'nglash uchun qo'l keladi. Alaloqibat, maydondagi raqiblaringiz ustidan qadam-baqadam g'alaba qozona boshlaysiz. Qisqasi, mazkur nufuzli musobaqada **Yangi O'zbekistonning milliy armiyasi kuch-qudratini yana bir bor amalda isbotladim.**

Darvoqe, harbiy jangchilarimiz ushbu musobaqada AQSh Milliy gvardiyasining maxsus bo'linmalari harbiy xizmatchilari bilan o'zaro kuch sinashdi. Demak, bahslar naqadar og'ir kechganini to'liq

anglashingiz uchun shu yetar-a? Aytmoqchimanki, raqiblar oddiy emas, balki professional bo'lgan. Biroq shunga qaramay, harbiylarimiz ularning ustidan zafar quchib keldi.

**O'zbekiston jamoasining musobaqadagi natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, yigitlarning haqiqiy mahorat egasi ekaniga guvoh bo'lamiz:**

Jamoaviy bahslarda vakillarimiz **15 kilogramm yuk bilan 20 kilometr masofani 1 soat-u 50 daqiqa** ichida bosib o'tdi. Shuningdek, yakka tartibdagi bellashuvlarda III darajali serjant Shohrux Jovkashev **3 kilometr-u 219 metr masofaga 11 daqiqa-yu 18 soniyada** yetib keldi. Kichik serjant Alishoh Abdullayev esa 250 metr masofada joylashgan majmuaviy mashqlardagi to'siqlarni **1 daqiqa-yu 18 soniyada yengib o'tib, 5 kilogramm og'irlikdagi koptokni 12,3 metr masofaga** uloqtirdi. Bu esa barchani hayratda qoldirdi. Qisqasi, mazkur shartlarning barchasida harbiy xizmatchilarimiz musobaqa rekordlarini yangiladi. Yakunda g'oliblar musobaqaning maxsus sovrini bilan taqdirlandi. Bu dastlabki yutuq emas, albatta. Chunki ushbu bellashuvlarda o'zbekistonlik harbiy xizmatchilar 2019-yildan beri muvaffaqiyatli qatnashib, takrorlanmas natijalarni qo'lga kiritib kelmoqda.

Bu fikrlar poytaxtimizdagi Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportida "Eng ilg'or jangchi"larni tantanali kutib olish tadbirida ham alohida ta'kidlandi. Marosimda harbiylar yutug'i mudofaa tizimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamlı islohotlarning samarasi, deya e'tirof etildi. Umuman olganda, **mard va jasur o'g'lonlarimiz Yangi O'zbekistonning harbiy xizmatchilari nimalarga qodir ekanini amalda ko'rsata oldi. Va davlatimiz, xalqimiz bildirgan yuksak ishonchni a'lo darajada oqladi.**

Darvoqe, so'zim boshida har bir insonning ichida bir jangchi bor, degan edim. Esingizdami? Unda yaxshi. Demak, tinchlikka qalqon o'g'lonlar o'sha "jangchi"larni to'g'ri yo'lga solib, ularni yanada rivojlantirib kelmoqda. Natijada xalqaro maydonda o'tkazilayotgan nufuzli musobaqalarda takror va takror davlatimiz madhiyasi yangrab, bayrog'imiz baland hilpirayapti. Siz-chi, qachon "jangchi"ni ishga solib, zafarlar keltirasiz?

**Kapitan Shohrux SAIDOV,**  
"Vatanparvar"



## Mardi maydonlar



# HARBIY XIZMATCHI – XALQ HIMOYACHISI

Qo'shinlarda o'quv yili o'zining mohiyati va ko'lamini bilan harbiy xizmatchilarimizning bilim va malakalarini yanada boyitishda muhim ahamiyatga ega. Chunki harbiy soha hamisha izlanishni, o'qish, o'rganishni, ko'nikma va mahoratni oshirib borishni talab etadi. Bugungi kunda yurt posbonlarimiz havas qilarli darajadagi jangovar va taktik mahoratlarini kundan kunga oshirib borgan holda, har qachongidan-da, fidokorlik va jonbozlik ko'rsatmoqda.



Sharqiy harbiy okrugning Farg'ona garnizonidagi harbiy qism shaxsiy tarkibi bilan o'tkazilgan batalyon taktik-o'quvi ham ayni shu maqsadlarga xizmat qildi.

Rejaga muvofiq, jarayonlar boshlandi. Azamatlar "yig'in" signali bilan yuqori shaylikka keltirildi. Zudlik bilan qurol-aslaha va boshqa zarur vositalar olindi. Guruh yetakchisi yuqori qo'mondonlikdan tushgan jangovar buyruqni yetkazdi. Topshiriqlar qisqa vaqt ichida o'zaro taqsimlanib, harakatlar rejasi kelishib olindi.

O'zi umuman bu kabi mashg'ulotlarda komandirlar mahorati yuzaga chiqadi. Chunki soniyalar ichida vaziyat o'zgarishi mumkin. Biroz oldingi qarorni yangisiga o'zgartirishga to'g'ri kelishi ham hech gapmas. Shu sabab ham yetakchi old qatorda borib, holatni nazorat qiladi.

Kolonna tarkibida okrugning "Sho'rsuv" dala-o'quv maydoniga yetib kelgan yurt o'g'lonlari hududda mos ravishda joylashuvni tashkil etdi. Harbiy texnikalar niqoblandi. Pozitsiyalar egallanib, qo'riqlov yo'lga qo'yildi. Atrof o'rganildi.

– Batalyon taktik o'quvlarida asosiy e'tibor yurt himoyachilarining taktik va operativ ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilmoqda, – deydi mayor Nurali Bo'riboyev. – Shuningdek, mashg'ulotda shaxsiy tarkibga qo'shinlar taktik

harakatlarining asosiy elementlarini amalda bajarish bo'yicha aniq va murakkab topshiriqlar berildi. Vatan himoyachilarining belgilangan joylarga yetib borishi, jangovar o't ochishning samarali usullaridan foydalanishi ko'rib chiqildi. Bu yerda hamma bir tan-u bir jon. Hech kim o'zi uchun kurashmaydi. Nega kurashmaydi, deya paman? Oddiy yoki murakkab mashg'ulot bo'lsin, jamoa unda kurashuvchanligini oshiradi. Hamjihatlikni mustahkamlaydi. Komandir sifatida qo'l ostimdagi har bir harbiy xizmatchining o'z imkoniyatidan kelib chiqib, unga vazifani belgilayman. Bu esa yuklatilgan vazifani tezkor va aniq bajarishimizda muhim rol o'ynaydi. Chunki imkoniyatdan va qobiliyatdan kelib chiqib, topshiriqqa kirishilsa, uning yakundagi natijasi a'lo bo'ladi. Yana bir gap: yangi taktik harakatlar, otish uslubiyati va boshqa jihatlar ham doim e'tiborimiz markazida bo'ladi. Bugungi batalyon taktik-o'quvi esa biz uchun o'rganganlarimizni takrorlash uchun qo'l keldi.

Aytish kerakki, bir vaqtning o'zida 10 dan ortiq o'quv joyida harakat boshlandi. Bunda razvedkachilar ilk qadamni tashladi. Ular atrofni sinchkovlik bilan o'rganib, shartli dushman joylashgan joy va texnikalarini ifodalovchi nishonlarni aniqladi. Kerakli ma'lumotlar asosida

komandir qaror qabul qildi. Endi navbat keyingi guruhga keldi. Yigitlar qo'qqisdan hujumni uyushtirdi. Zirhli jangovar texnikalar bilan otish joyini egallash va hujumni tashkil etish ishlari keng ko'lamda olib borildi. Shuningdek, piyodalarning ham belgilangan tartibda dushman hududiga bostirib kirishi, mudofaa chizig'ini himoya qilish tadbirlari amalda ko'rib chiqildi. Ahamiyatlisi, jarayonlarda o'g'lonlar topshiriqlarni jahonda kuzatilayotgan harbiy-siyosiy vaziyat va qurolli to'qnashuvlar tahlili asosida bajardi.

Ketma-ket otilayotgan o'qlar nishon markazini yorib o'tdi. Demak, bundan ko'rinadiki, Vatan o'g'lonlari har qanday sharoitda ham qo'yilgan topshiriqni yuqori saviyada ado etishga qodir. Ular cho'l sharoiti, notanish hudud, qiyin vaziyatlarda ham to'xtab qolmaydi. Chunki harbiy xizmatchi – xalq himoyachisi.

Qisqasi, bu yerda ham komandirning yetakchilik qobiliyati, ham shaxsiy tarkibning jangovar shayligi chin ma'noda sinovdan o'tdi.

– Harbiy xizmatchi har jihatdan mukammal bo'lishi kerak. Jangovar shayligi yuqori, jismonan chiniqqan va albatta vaziyatdan kelib chiqib, mustaqil qaror qabul qila olishi lozim, – deydi

kichik serjant Jasur Eshmirzayev. – Qolaversa, u mavjud qurollarni qo'llay bilishi va topshiriqlarni tez hamda aniq bajarish imkoniga ega bo'lishi kerak, ana shunda muvaffaqiyat qozonadi. Aytishim kerakki, mashg'ulotlarning har bir o'quv joyida safdoshlarimiz bilan birgalikda osondan murakkablashgan vazifalarni bajardik. Xususan, shahar sharoitidagi nishonlarni yakson etish, notanish hududdagi topshiriqlar, qisqasi barcha jarayonlarda bo'linmimizning birdamligi mustahkamlandi. Aytishadi-ku, bilimi, kasbiy ko'nikmasi-yu mahoratini oshirib kelgan jangchi hech qachon taslim bo'lmaydi, vaziyatdan to'g'ri xulosa chiqaradi va shu asosda g'alaba sari odimlaydi. Bugun ana shu tamoyil bizni bir musht bo'lib harakatlanishimizga turtki bermoqda.

Mashg'ulotlarda yangicha harakatlar namoyish etildi. Nishonlarni yo'q qilishning o'ziga xos usullari amalda ko'rib chiqildi. Guruhning birgalikdagi harakatlari yanada muvofiqlashtirildi. Qisqasi, mazkur o'quvlar tinchlikka qalqon o'g'lonlarning yo'nalishlar bo'yicha bilimlarini yanada mustahkamlashga, tajribalarining ortishiga xizmat qildi.

**Kapitan Shohrux SAIDOV,**  
"Vatanparvar"





## Tajriba



Nukus garnizonida Shimoli-g'arbiy harbiy okrug bosh serjantlari, vzvod hamda yo'riqchi-serjantlar bilan o'quv kurslarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha yig'in bo'lib o'tdi.

## SERJANTLAR ISHTIROKIDA O'QUV YIG'INI O'TKAZILDI

Qurolli Kuchlarimiz saflarini professional harbiy kadrlar bilan butlash jarayonida harbiy xizmatchilarning malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi yuqori samaradorlikka olib kelmoqda. Har tomonlama barkamol, o'z kasbiga fidoyi, ofitser va komandirlarning yaqin maslahatchisi, askarlarning ustози bo'lgan serjantlar bugun tom ma'noda armiyaning tayanchi va suyanchiga aylanib ulgurdi. Serjantlar tarkibidagi harbiy kadrlarning professionallik darajasini yuksak cho'qqilarga chiqarishda joriy etilgan bosh serjant va bosh serjant yordamchilari hamda yo'riqchi-serjantlar ko'plab o'z kasbining mohir ustalarini tayyorlash, yosh serjantlarning malakasini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Yig'inda Mudofaa vazirligi qo'shinlarida joriy etilgan bosh serjant va bosh serjant yordamchilari faoliyati, kichik bo'linmalardagi serjantlarning shaxsiy tarkib bilan ishlashi, ularni boshqarish samaradorligi, harbiy jamoalarda harbiycha intizom, axloqiy-ruhiy holatni yaxshilash va harbiy xizmatchilarning tayyorgarlik darajasini oshirish bo'yicha faoliyatini yanada takomillashtirish, ularning xizmat faoliyatini tashkil etishda o'zaro tajriba almashish kabi masalalar ko'rib chiqildi.

Ta'kidlash joizki, O'zbekiston armiyasida bugungi kunda serjantlar korpusining mavqeyi va nufuzi sezilarli darajada oshib bormoqda. Bunga 2021-yilda jangovar brigada va batalyonlarda yo'riqchi-serjant lavozimlari joriy etilib, ularning harbiy unvonlari "katta serjant" darajasiga ko'tarilgani, yo'riqchi-serjant lavozimiga uchta kasbni mukammal egallagan, o'z kasbining ustasi va ekstremal sharoitda yashovchanlik kurslarini muvaffaqiyatli bitirgan harbiy xizmatchilarni tayinlash tizimi yaratilganini ko'rsatish mumkin. Qolaversa, davlatimiz rahbari tomonidan qabul qilingan farmonga muvofiq, 2024-yildan armiyada bosh serjant va bosh serjant yordamchisi lavozimlari joriy etilgani, mazkur farmonga asosan, saralab olingan va lavozimga tayinlangan serjantlarga "serjant-mayor", "master-serjant", "shtab serjanti" hamda "birinchi serjant" kabi yangi harbiy unvonlar berilgani serjantlar korpusining armiyadagi nufuzini bir necha karra yuksaltirganini e'tirof etish kerak.

O'quv kursi davomida harbiy okrug shtab serjantlari o'z faoliyatlari yuzasidan chiqishlar qilib, faoliyatining muhim jihatlari haqida nutq so'z'ladi. Harbiy okrug

qo'shinlarida bo'linmalarining jangovar tayyorgarlik darajasini oshirish, kontrakt bo'yicha harbiy xizmatga kirib kelayotgan yosh kadrlarning harbiy soha bo'yicha bilim va ko'nikmalarni tez egallashiga ko'maklashish, kasbiy malakasini oshirish, jangovar-xizmat faoliyatida yo'l-yo'riq ko'rsatish borasida tajribalari bilan bo'lishdi.

Yig'in doirasida qo'shinlarda jangovar tayyorgarlikni rivojlantirish islohotlari, bosh serjant va bosh serjant yordamchilari hamda yo'riqchi-serjantlarning bo'linmalar tayyorgarligidagi o'rni va roli, psixologik barqarorlikni ta'minlashda jangovar trening va psixologik

mashqlarning o'rni, o'quv mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish asoslari, bo'linmalarda sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni ta'minlash, harbiy xizmatchilarning vatanparvarlik tarbiyasini oshirish kabi mavzular bo'yicha ma'ruzalar tinglandi.

Tadbir yakunida ishtirokchilar uchun zamon talablari asosida jangovar tayyorgarlik mashg'ulotlarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rgazmali mashg'ulotlar o'tkazildi.

**Podpolkovnik  
Timur NARZIYEV,  
Shimoli-g'arbiy harbiy okrug  
matbuot xizmati boshlig'i**





## Chegara qo'shinlarida



# ASKARLAR MASHG'ULOTLARDA TOBLANMOQDA

Ayni damda chaqiruv tadbirlari doirasida Davlat xavfsizlik xizmati Chegara qo'shinlariga muddatli harbiy xizmatga kelgan askarlar dastlabki tayyorgarlik jarayonlaridan o'tmoqda.

bo'lib o'tdi. E'tiborlisi, egniga harbiy libos kiyganiga hali ko'p fursat bo'lmagan o'g'lonlar belgilangan topshiriqlarni chaqqonlik, epchillik va tezkorlik bilan bajarishga muvaffaq bo'ldi.

– Bugungi o'quv mashg'ulotlari davomida qurol-aslahalardan foydalanish, nishonni to'g'ri mo'ljalga olish, yaralangan safdoshlarimizga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha amaliy ko'nikmalarga

tumanidagi harbiy qismda ham tashkil etilib, muddatli harbiy xizmatchilarning qurol-aslahalardan foydalanish ko'nikmalarini yanada mustahkamlashga xizmat qildi.

– Bolaligimizda o'yinchoq avtomatlarda, keyinchalik esa istirohat bog'laridagi tirlarda otgan o'qlarimiz mo'ljalga tekkudek bo'lsa, o'zimizda yo'q xursand bo'lib yurar edik. Ammo haqiqiy qurolni qo'lda tutish, undan to'g'ri foydalanish, nishonni aniq mo'ljalga ola bilish, atrofingdagi shovqinga his-hayajonlarsiz moslashish, eng muhimi jangovar o'q otish jarayonlarida xavfsizlik qoidalariga



Xususan, Samarqand viloyatida joylashgan harbiy qismlarning birida yosh askarlar bilan o'tkazilgan jangovar tayyorgarlik yo'nalishidagi amaliy dala-o'quv mashg'ulotlari o'q otish, taktik tayyorgarlik, jang maydoniga o'q-dorilarni yetkazib berish, yakka holda xandaq qazish va uni jihozlash, qirg'in qurollaridan himoyalaniish kabi yo'nalishlarda jangovar harakatlarga tenglashtirilgan holatda o'tkazildi.

Dastlab, mashg'ulot rahbarlari tomonidan askarlarga qurollarning qo'llanilishi, taktik-texnik tavsifi va ulardan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etilishi yuzasidan

batafsil ma'lumot berilgach, ishtirokchilar belgilangan o'quv nuqtalarida otish tayyorgarligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amalda mustahkamlash imkoniga ega bo'ldi.

Mashg'ulotlar davomida askarlarga quroldan nishonga bexato otish, jang maydonida harakatlanish tartibi, o'ziga birlashtirilgan qurol-aslaha va ekipirovka vositalaridan samarali foydalanish bo'yicha dastlabki amaliy ko'nikmalar berildi.

Shu kabi mashg'ulotlar Qoraqalpog'iston Respublikasida o'z yig'itlik burchini o'tash uchun jam bo'lgan askarlar ishtirokida ham

ega bo'ldim. Barcha o'quv mashg'ulotlarini a'lo darajada bajara olganim esa menga yanada shijoat va kuch bag'ishladi. Albatta, yurtimiz tinchligi, xalqimiz osoyishtaligini ta'minlashda o'z hissamni qo'shishga, ona zaminimizning har qarich tuprog'ini tish-tirnog'im bilan himoya qilishga va'da beraman, – deydi oddiy askar Asqar Husanov.

“Mashg'ulotda qanchalik qiyin bo'lsa, jangda shunchalik oson bo'ladi”, degan hayotiy haqiqatni amalda namoyon etayotgan bunday mashg'ulotlar DXX Chegara qo'shinlari o'quv markazi birlashgan o'quv punkti hamda Ohangaron

rioya etish insondan katta mas'uliyat talab qilar ekan. Buni aynan shu yerga kelib his qildim. Olgan bilim va ko'nikmalarim esa kelgusidagi xizmat faoliyatimda juda katta yordam beradi, – deydi muddatli harbiy xizmatchi Javohir Qosimov.

Biz o'z yig'itlik burchini sharaf bilan ado etishga tayyorgarlik ko'rayotgan barcha jasoratli o'g'lonlarimizga omadlar tilab, kelgusida Vatan sarhadlari himoyasida hamisha sergak va sobit turishlariga ishonamiz.

**Mayor Farida BOBOJONOVA**  
DXX Chegara qo'shinlari



Imom al-Moturidiy tavalludining 1155 yilligiga

# MOTURIDIY TA'LIMOTIDA TINCHLIK VA HAMJIHATLIK



Imom al-Moturidiy nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun islom olami uzra kalom ilmida mustahkam ta'limot yaratgan jahoniy allomalardan biri hisoblanadi. Uning ilmiy merosi dunyo musulmonlarining ma'naviy muhitida oqilona tushunchalarni shakllantirish hamda jaholat va mutaassiblikka qarshi ma'rifat orqali kurash yondashuvini shakllantirishda muhimdir. Davlatimiz rahbarining "Imom Moturidiy tavalludining 1155 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori aynan ana shu bebaho ilmiy-ma'naviy boylikni keng targ'ib qilish, yosh avlodni ajdodlar merosiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularga xolis va to'g'ri ma'lumot yetib borishini ta'minlashga qaratilgan.



Ma'naviy tarbiyani to'g'ri yo'naltirish, mafkuraviy immunitetni oshirish, xalqni turli buzg'unchi g'oyalardan himoya qilish va diniy bilimlarni o'zlashtirishda e'tiqod hal qiluvchi vazifani bajaradi. Aqida insonning o'y-fikr, harakatlari natijasini belgilab beradi. Ya'ni jamiyat taraqqiyoti sof aqida bilan chambarchas bog'liq. Bu borada moturidiylik aqidasi bizga namuna bo'ladi. Olimlarning moturidiya ta'limoti haqida bildirgan ta'riflari fikrimizni tasdiqlaydi. Xususan, Kafaviy alayhir rohma Imom Moturidiy haqida bunday yozadi: **"U mutakallimlar imomi, musulmonlar aqidasi to'g'rilovchi shaxs... U bor kuchini din himoyasi uchun sarflagan va buyuk asarlar yozgan hamda botil aqida sohiblariga raddiyalar bergan"**. Shu bois necha yuz yillar o'tsa ham, Moturidiy ta'limoti butun islom dunyosida keng o'rganilib, targ'ib qilinadi.

Buyuk vatandoshlarimiz qatorida sanaladigan Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur al-Moturidiy as-Samarqandiy Samarqandning Moturid deb ataladigan mahallasida milodiy 870-yil – hijriy 256-yilda tug'ilgan. U dastlabki ma'lumotni o'z otasi Muhammad ibn Mahmuddan, so'ngra o'sha davrda boshlang'ich maktab hajmida bilim beruvchi Kuttobda oladi. Undan keyin Samarqanddagi Raboti G'oziyon masjidi qoshidagi madrasada ta'lim olgani haqida ma'lumotlar bor.

Imom al-Moturidiyning zalolatning har qanday ko'rinishlaridan yiroq, musulmonlar orasida sog'lom islomiy tafakkurni targ'ib qilish borasidagi sa'y-harakatlari hamda uning barhayot ta'limotlari mazmun-mohiyatini to'liq idrok qilish uchun alloma yashagan davrdagi mavjud diniy-ma'naviy muhitni yaxshi tasavvur qilish kerak, deb yozadi akademik Ubaydulla Uvatov. Chunonchi, o'sha davrda islom dunyosining qator o'lkalarida musulmonlar diniy mutaassiblar va buzg'unchi guruhlarining xatti-harakatlaridan aziyat chekib, iymon-e'tiqod masalasidagi noto'g'ri talqin va chalkashliklardan jiddiy muammolarga duch kelgan edi.

VIII asrdan boshlab islom dinida paydo bo'la boshlagan turli toifa va guruhlarining soni

Imom al-Moturidiy yashagan IX asrning oxiri va X asrning birinchi yarmiga kelib yanada ko'payib, bu hol iymon-e'tiqod masalalarida katta ixtilof va parokandalikning yanada kuchayishiga olib keldi. Mana shunday guruhlardan biri mu'taziliylar bo'lib, ular aqidaviy masalalarni sharhlashda ham, o'z g'oyaviy raqiblariga qarshi kurashda ham tor, bir tomonlama fikrlarga yondashib, faqat aqlga tayanib ish tutdi. O'zlarining bu maslaklariga haddan ortiq yopishib olib, mu'taziliylar hatto jamiyatda yuzaga kelgan masalalar bo'yicha muqaddas manbalarda ochiq-oydin keltirilgan ko'rsatmalarni ham fikr-mulohazalariga moslashtirib talqin qila boshladi.

Mu'taziliylarning namoyandalaridan ba'zilar shu darajaga borib yetdiki, ayrim sahoba va tobe'inlar tomonidan aytilgan hadislar ular usullariga to'g'ri kelmasa, bunday hadislarini noto'g'ri, deyishdan ham tap tortmadi. Ayrim olimlarning qayd etishlaricha, mu'taziliylarning fikriga ko'ra, haq va botilni ajratadigan yakka-yu yagona mezon – aqlga tayanish bo'lib qolgan. Iymon-e'tiqodning ayrim masalalarida ham mu'taziliylar noto'g'ri yo'l tutdi.

Mana shunday murakkab sharoitda kalom ilmining yirik namoyandasi sifatida Imom al-Moturidiy vujudga kelgan qaltis vaziyatni tuzatish masalalari bilan shug'ullandi. Musulmonlar o'rtasida turli-tuman nifoq-u ixtiloflar sodir bo'lib, ular o'zaro kelishmagan har xil guruhlariga bo'linib, birligiga putur yetgan, bir diniy-ma'naviy tang vaziyat vujudga kelgan edi. Ana shunday og'ir paytda e'tirozga o'rin qoldirmaydigan aqliy va naqliy dalillarga tayanib, Imom al-Moturidiy hazratlari islom ahli aqidasi sog'lom fikrga, rushdi-hidoyatga va dini islomning asl mazmun-mohiyatiga mos keladigan mustaqil yo'lga boshladi.

O'zining ulug'vor hayotbaxsh ta'limotlari bilan millionlab musulmon ahli aqidasi bir-biriga zid bo'lgan buzg'unchi, fosiq g'oyalardan saqlab qoldi. Shu bois bo'lsa kerak, buyuk vatandoshimiz aqidaviy masalalardagi benazir xizmatlari uchun, ehtimol, jahonning birorta ham allomasiga nasib

etmagan **"Musulmonlar aqidasi tuzatuvchisi"** (**"Musahhih aqoid al-muslimiyn"**), **"Xurofot va bid'atga asoslangan uydirmalarni ildizi bilan qo'poruvchi"** (**"Qoli' azoliyn al-fitna va-l-bid'at"**) degan o'ta sharaflı darajalarga sazovor bo'lgan allomadir.

Imom al-Moturidiyning qalamiga mansub asarlarning soni qariyb o'n beshtaga boradi. Allomaning aksariyat asarlarida islom dinining falsafasini tashkil etuvchi kalom ilmining turli masalalarida to'g'ri fikrlar ilgari surilgan bo'lib, aqidaviy haqiqatdan adashgan firqalar ilmiy nuqtayi nazardan tanqid qilingan.

Shu ma'noda bugungi kunda ham Imom al-Moturidiy ta'limoti jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Dunyo bo'ylab ekstremizm va radikalizm xavfi kuchayib borayotgan bir davrda Imom al-Moturidiyning ta'limoti jaholat va mutaassiblikka qarshi ma'rifat va aql-zakovat bilan javob berishga chorlaydi.

Shuningdek, Imom al-Moturidiy ta'limoti yurtimizning islomiy merosini chuqur o'rganish, ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasini to'laqonli anglash, adolat, insoniylik va ma'rifatparvarlik tamoyillari asosida hayot barpo etishga xizmat qiladi. Shu jihatdan yubiley tantanalari universitetlar va ilmiy tadqiqot muassasalarida Imom al-Moturidiy merosini o'rganish bo'yicha yangi tadqiqotlar olib borilishiga kuchli turtki berishi kutilmoqda.

Imom al-Moturidiyning 1155 yilligini nishonlash bo'yicha qabul qilingan qaror milliy qadriyatlarimizni mustahkamlash, ma'rifatni taraqqiy ettirish hamda yoshlarni ilm va ezgulikka yo'naltirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu qaror orqali yurtimizda ma'naviy merosimizga bo'lgan e'tibor yanada kuchayib, uning ilmiy asosda o'rganilishi yangi bosqichga ko'tarilishi shubhasiz. Buyuk allomaning boy ilmiy merosi hamisha insonlarni hidoyat sari yetaklaydigan manba bo'lib qoladi.

Muhammad ibn Mahmud Abu Mansur al-Moturidiy milodiy 944 – hijriy 333-yilda vafot etib, Samarqandning mashhur Chokardiza qabristoniga dafn etilgan.



Vatan ravnaqi, tinchligi va himoyasi yo'lidagi qahramonlik unutilmaydi

# “U KUNLARNI ESLASAM, o'pkam to'lib ketadi...”



Muallif suratga olgan

Odatda insonga tilak bildirilganda “umri uzoq, tani sog', rizqi butun bo'lsin”, deyiladi. Uzoq umr esa 100 yosh orasi bilan o'lchanadi. Shunday ulug' yoshni qarshilayotgan insonlarning ziyoratida bo'lish, ularning duosini olishga oshiqish bizning odatlarimizga xos. Ular ulug' yoshga kirgani uchun emas, shuncha vaqt davomida hayot sinovlariga bardosh bergani, bir asr tarixga guvoh bo'lgani uchun hikoyalarini eshitish juda maroqli.

Toshkent viloyatining Bekobod shahrida umrguzaronlik qilib kelayotgan Hasanboy ota ham shu yil 100 bilan yuzlashdi. Qahramonimiz bilan suhbatlashish maqsadida u kishi yashayotgan manzilga yetib bordik. Otaning uy peshtoqiga “Bu xonadonda Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Xolmatov Hasanboy istiqomat qiladi” degan lavha osig'liq turardi...

## “YERNI OSHNI DAMLAGANDEK DAMLAGANDIM”

– Ota-onam dehqonchilik bilan shug'ullanardi. Eshakka omoch qo'shib yer haydashni boshlaganimda, chamasi, 10 yoshlarda edim, – deydi Hasanboy ota Xolmatov. – Juda maroqli mashg'ulot edi. Ekin uchun yer tayyor, endi urug'ni qadasak bo'lgani... ammo otamning bir sinovi ham bor ediki, undan o'tish uchun ko'proq ter to'kishimga to'g'ri kelardi. Tuxumdek kattalikdagi toshni qo'lga olgan otam uch-to'rt quloch balandlikka otardi. Qaytib tushgan tosh haydalgan yerga botmasdi. Yerni qayta haydashimni aytardi. Bu hol bir necha marotaba takrorlangandan keyingina tosh yerga botardi. Shunda otam “Yerni oshni damlagandek damlabsan”, derdi. “Damlangan” yerga ekilgan oq jo'xorining hosili juda ham yaxshi bo'lardi...

Tomorqamizning bir qismini oftoab tig'ida uch oy kuydirardik.

Sentabr oyida esa kuydirilgan yerga uch bargli sabzi ekardik. Hozirgidek qizil va sariq emas, u vaqtlarda oq sabzi ekilardi. Kichkina joydan ham tonnalab hosil olinardi. Noyabr oyining oxirlarida qirg'izistonlik kirakash yigitlar tuyalarda kelib, yetishtirgan hosilimizni Andijondan Marg'ilonga yetkazib berardi. Men ham o'sha paytlarda otamga ergashib bozorga borardim.

U davrlar bolalikning shirin xotiralari sifatida esimda qolgan. Hech qachon unutmayman. Ayniqsa, onamning biz uchun pishirgan taomlari, otamning bizga bergan o'gitlarini doim qo'msayman. Ularning gashti boshqacha edi.

## FRONTGA YO'L

– Yoshim 18 ga yetganida meni ham armiya safiga chaqirtirishdi. Qisqa muddatli tayyorgarlikdan keyin 1943-yilning dekabr oyida bizni front chizig'iga olib ketayotgan eshelonga dushman samolyotlari tomonidan hujum uyushtirildi. Kimdir u tomonga yashiringan, kimdir so'l tomonga. Biz ko'pchilik bo'lib yonimizdagi o'rmon tomon yugurdik. Barcha millat va davlatdan urushga safarbar qilingan norg'ul yigitlar o'z tillarida “Ona!” deya baqirgancha yugurardi. Urush biz uchun shu tariqa boshlangandi.

Frontda tankka qarshi to'plarga snaryad yetkazuvchi vazifasida bo'ldim. Bitta to'pni o'qlash,

mo'ljalga olish va otish vazifasini 5 kishi bajarar edi. Men jamoaning 5-a'zosi edim. Xavfsizlik nuqtayi nazaridan 150-200 metrcha chamasi uzoqlikda joylashtirilgan snaryadlarning og'irligi 15 kilogrammni tashkil qilar, bitta qutida 3 dona to'p o'qi bo'lib, uning og'irligi 45 kilogramm edi. Ikki qo'lim bilan ikkita qutini tortib, orqa kuragimda esa yana bitta qutini opichlab kelaman. Umumiy hisobda 135 kilogramm vazndagi yukni to'pga yetkazib beraman. Vazifamizning og'ir tomoni shunda ediki, tinim yo'q edi. To'xtab qolishning oqibati og'ir bo'lishini barchamiz yaxshi bilardik.

Bir safar snaryadlar joylashgan joyga borganimda to'p ustiga dushman o'qi kelib tushdi. Jamoadan bitta men tirik qoldim... U kunlarni eslasam, o'pkam to'lib ketadi.

G'alabani Berlinda kutib oldik. Hamma xursand. Shunda ko'pchilik jangchilar devorga ismi va manzilini yozayotganiga ko'zim tushdi. Men ham yozmoqchi bo'ldim, ammo bo'sh joy qolmagan edi. Shunda quroldosh do'stimizning yelkasiga chiqib, teparoqdan bo'sh joy topdim-da, ismim, manzilim va millatimni yozdim. Oradan yillar o'tib, 1972-yili Berlinga borganimizda yozganimning yarmi o'chib ketganini, ammo “Hasanboy, Andijon” degan jumlar hali ham devorning tepa qismida borligidan xursand bo'ldim. Yana bir bora o'sha kunlarni xotirlagandik.

## UYGA QAYTISH

– Urush tugagan bo'lishiga qaramasdan, bizni 1950-yili uyimizga qaytarishgan. O'shanda opam men uchun bir qizni ko'z ostiga olib yurgan ekan. Qaytishim bilan to'y qilib, o'sha qizga uylanganman. Men 26 yoshga to'lganimda katta o'g'lim dunyoga kelgan. Birin-ketin 9 farzandli bo'ldik. Ikkisining umri qisqa ekan, peshonamizga bitmadi. Qolgan barchasini uyli-joyli qildik. Urushdan keyingi hayotim va faoliyatimni Bekobod shahrida o'tkazdim. Bu orada metall, g'isht zavodlari va Sirdaryo GRESda ishladim.

## “O'ZIMGA XIYONAT QILMADIM”

– Ortda qolgan umrimga qarab turib shuni angladimki, har qanday holatda ham halol va poklikka intilish kerak ekan. Negaki, umr baribir o'tar ekan. Uni to'xtatishning imkonini yo'q. Ammo yoshing o'tib, vijdoning oldida hisob berayotganingda ko'ngil og'riydigan amallarni qilmaganing xotirjamlik bag'ishlar ekan. Halovat topar ekansan.

Bir umr oylikka qarab yashadim. Oilam shunga qanoat qildi. Rahbarlik lavozimlarida ishlaganimda ham, uni suiiste'mol qilmadim. Eng asosiysi, o'zimga xiyonat qilmadim.

## O'ZBEK OFITSERLARI

– Bekobod shaharchasining o'zida Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari 600 dan ortiq edi. Bugun esa 2 nafar qolibmiz. “Uch avlod uchrashuvi”, “Ochiq eshiklar kuni” va harbiylar bilan turli uchrashuvlar chog'ida harbiy qismlarga boramiz. Bugungi kun sharoitlarini ko'rib, to'g'risi, ko'zimga yosh keladi. Bu kunlarga yetganlar bor, yetmaganlar bor... Dorilamon kunlarning qadriga yetish kerak. Tinchlikni qadrlash kerak.

Uchrashuvlarda yoshlar urush haqida ko'proq gapirishimizni so'raydi. Ammo u kunlarni ko'rish u yoqda tursin, eslashning o'zi insonni ruhiy azoblaydi. Shuning uchun o'sib kelayotgan bolalarimizga doim ta'kidlaymanki, urushning nomi o'chsin, hech qachon urush bo'lmasin! Jang maydonida o'tgan har daqiqaning o'tishi shunchalar qiyinki, bir soniyadan keyin nima bo'lishini aytish qiyin. Topishdan ko'ra yo'qotishlar ko'p bo'lgan. Yangi kiyim kiymadik, qornimiz to'yib ovqat yemadik...

Bugungi kunlarning shukronasini qilish kerak. Faqat yaxshi yashash, o'qish va intilish kerak. Bugungi yoshlarga yaratilgan imkoniyatlar bizda bo'lgan emas. Hatto tasavvur ham qilolmaganmiz. Shu Vatanni sevish kerak, uni ko'z qorachig'iday asrash kerak.

**Sherzod SHARIPOV,**  
“Vatanparvar”



## Qahramonlar nomi barhayot

# “Onajon, bu Ma’rufning qushi”



Toshkentdan Qashqadaryoga kelishda Samarqand viloyatining Bulung’ur tumaniga tegishli ko’chalardan biriga kiraverishda yo’l chetida o’rnatilgan peshtaxtada yozilgan bitiklar doim xayolimni olardi. “Bu ko’cha yurtimiz sarhadlari daxlsizligi va xalqimiz osoyishtaligini ta’minlash yo’lida jonini fido qilgan mard va jasur Vatan himoyachisi, “Jasorat” medali sohibi katta serjant Ma’ruf Rajabov nomi bilan ataladi”.

Bu so’zlar yuragi bor har qanday insonning ko’nglida Vatan ozodligi, tinchligi qanchalar qimmatli ekanini anglashga undaydi. Bu safar peshtaxta oldidan shunchaki o’tib ketolmadim. Suratda muhrlanib qolgan o’tkir nigohlar nimalardir so’zlardi. Bus-butun jasoratdan iborat bo’lgan bu yigitning taqdiri, hayoti meni judayam qiziqtirdi. Yuragimni timdalab turgan tushuniksiz tuyg’ularga, balki, shu yo’sin taskin berarman, degan xayolda qahramonimiz yashagan xonadonga yo’l oldim. Ostonada tuproqdek xokisor bir onaxon kutib oldi.

– Keling, bolam, sizga qanday yordamim tegadi? O’g’lim uyda yo’q edi.

Kelishimning muddaosini tushuntirdim. Ko’zlarimga siniq nigohda termildi-da, uyiga taklif qildi.

Onaizor shunday hikoya qildi:

– Ma’rufjonni boshqacha yaxshi ko’rar edim, ko’zlari tip-tiniq, tabassumidan ko’nglim yorishardi. Aslida bir farzandni ikkinchisidan ajratib bo’lmaydi, lekin u boshqacha edi. Boshqa bolalarga o’xshamas, go’yo hayotni ertaroq tushunib yetgan-u, bizning ko’nglimizga qarab yashayotgandek edi. Tabiatni sevar, borliq bilan tillashardi. Bir necha bor kuzatganman, yaproqlarga quloq tutganicha ularga nimalardir pichirlayotganini. “Hoy bola, kimga gapiryapsan?” desam, cho’chib ketardi. “Jim” deb imo qilardi. “Har maysa, har yaproq bir hikmat so’zlarkan, ona, ularning tili, vazifalari bor ekan, kitobda o’qidim. Katta bo’lsam, hammasining tilini o’rganaman. Ularning dardlariga quloq solaman. Keyin gullar so’lib qolmaydi, daraxtlar qurib qolmaydi, ona”, degan edi bir safar. Uning kattalardek so’zlashidan hamma hayratda qolardi. Na yoshlik kezlari, na yigitlik chog’lari bo’lsin, ortidan yomon gap eshitmadim. Maktabdan ham doim menga maqto’v olib kelardi. Qo’ni-qo’shnilar ham og’zidan bol tomib maqtardi. Ko’z tegdimi, bilmadim...

Bir kuni uyimizga bir qanoti yarador qirg’iy bolasini ko’tarib keldi. Avvalboshda qo’rqdim, qushning kasali bor bo’lsa-chi, deb o’ylab, urushib berdim:

– Qayerdan topgan bo’lsang, o’sha yerga tashlab kel!

Yig’lab yubordi.

– O’lib qoladi, ona, buning ham joni bor, onasi bor, davolab, keyin uchirib yuboraman. Dalaning daydi itlari unga tashlanib yemoqchi bo’layotgan ekan, ulardan qutqarib uyga olib keldim, – dedi.

Ko’zlariga cho’kib qolgan iltijodan nima deyishimni bilmay qoldim. Ma’rufjonning talabini rad qilishning imkonini yo’q edi. Bolaginamning bir qushning himoyachisi bo’lganini ko’rib, ertaga yurtining, tuprog’ining ham qo’riqchisi bo’lishi ko’z oldimda gavdalandi (*adashmagan ekanman*). Ko’nglini sindirib qo’yishdan qo’rqardim. Xullas, qushni ko’z qorachig’idek asrab-avaylab ulg’aytirdi, o’zi yemagan ovqatlarni berib boqdi. Yelkasidan yerga qo’ymasdi. Maktabidan kelishi bilan qush jon-jahdi bilan uchib, Ma’rufjonning qo’llariga qo’nardi. “Hoy bola, bu bir qush bo’lsa, bir kuni ko’zingni o’yib olmasin”, deb koyirdim. “Onajon, bu oddiy qush emas, bu Ma’rufning qushi”, deya jilmayardi.

Bir safar o’g’lim maktabga ketgach, qush ham uchib ketdi. Shu bo’yi qaytmadi, izlamagan yeri qolmadi bolamning, kasal ham bo’lib qoldi. O’rganib qolgan ekan. Rosa qiynaldi bolam bechora. So’ng taqdirga tan berdi, lekin kap-katta yigit bo’lib qolgan kezlari ham o’sha qushini kutardi.

Ma’rufjonda harbiylikdan ko’ra ijodkorlikka muhabbati kuchliroq deb o’ylaganman avvalboshda. Katta o’g’lim harbiy bilim yurtiga o’qishga kirganidan so’ng qiziqib ketdi chamamda. Akasi uyga keldi deguncha kiyimlarini katta qilib kiyib olardi, qo’llarini boshiga qo’yib, “Vatanimga xizmat qilaman! Vatanimga xizmat qilaman!” deya zavqqa to’lib yugurib yurardi.

Hech kun yo’qki mendan keyin uyg’ongan bo’lsa, saharlab turib, maktabimizning stadioniga yugurib kelib, akasidan o’rgangan mashqlarini takrorlardi.

Anavi ko’rinib turgan turnik ham Ma’rufjondan esdalik.

Bolam maktabni a’lo baholarga tugatgandan so’ng Samarqanddagi Pedagogika va jismoniy tarbiya bilim yurtiga o’qishga kirdi. U dargohda ham ustozlar e’tiborida bo’ldi, bir necha bor tashakkurnomalar olgan oliygoh ma’muriyatidan.

Ufqning ko’zlari qizarib, quyoshning tafti so’nib, kunbotar mahallar so’riga joy tashlab, otasiga choy damlab turgandim Ma’rufjon kelib qoldi. “Onang o’rgilsin, kel, bolam”, deb qosh-ko’zlaridan o’pdim. Qarasam, sochlari olingan. “Ha, bolam, askarlardek bo’lib olibsan?” “Men ketyapman”. “Qayoqqa, bolam?” deb so’rasam, yuragim dukullab, harbiy xizmatga ekanini aytdi. O’qishing bor-ku, bolam, desam, qaytib kelib bitiraman, dedi. Keyin bilsam, o’zi da’vogar bo’lib Vatanimga xizmat qilay, deb ariza yozib ketgan ekan. Tongda uyg’onib, otasidan, mendan duo oldi, kuzatgani chiqaylik, desam, unamadi.

Kunim qursin, shu ketishda qaytib kelmadi.

Onaxon jim qoladi shu yerda. Na men qolgan tafsilotlar haqida so’ray olaman, na onaxonning o’zi aytib beradi, ko’zlaridan oqayotgan yoshlari Ma’rufjonning suratiga chakillab tomib turibdi. Suratni bag’riga bosganicha “Qahramon bolam”, deb oh-u fig’onidan yer-u samo larzaga keladi. Boshqa gapirolmaydi.

Hech odamga bunday judolik o’tida kuyish nasib qilmasin. “Yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo’lsin”, deb duo qilardi otam. Endi anglagandek bo’lyapman xalqimiz ichida duoga aylanib ketgan bu iborani. Bugungi dorilamon kunlarni orzu qilgan ota-bobolarimiz boshidan ne-ne musibatlar o’tmagan deysiz. Ikkinchi jahon urushida ham qanchadan qancha onalarning oh-u

faryodi ko’kni titratgan. Bugungi yorug’ kunlarga kelguncha millionlab qahramon yigitlarimiz dushmanlar o’qiga ko’ksini qalqon qilmadi, deysiz.

**O’zbekiston xalq shoiri  
Muhammad Yusufning bir  
she’rida shunday misralar bor:**

*Bir kuni  
bir alvon  
zamon bo’ladi,  
Zamin uzra  
omon-omon bo’ladi.  
O’n yilmi,  
Yuz yilmi o’tib oradan,  
urushlar, nizolar ketib oradan,  
To’plar adirlarda bug’doy o’radi,  
Tanklar dalalarda paxta teradi.  
She’rda aytilgan dorilamon*

kunlarga yetib, ko’ksimizga endigina tegib turgan shamolning taftidan baxtiyor chog’larda Vatanimiz tinchligiga daxl qilmoqchi bo’lgan bir guruh terrorchi g’alamislar yurtimiz sarhadlarini buzib kirmoqchi bo’ladi. Bundan xabar topgan milliy armiyamiz posbonlari muqaddas tuprog’imizga terrorchi to’dalar kirib kelishining oldini olish uchun o’z ko’ksini qalqon qiladi. Ana shunday mard, jasur o’g’lonlar orasida Ma’ruf Rajabov ham bor edi. U jangovar harakatlarda yuksak vatanparvarlik va jasorat ko’rsatib, dushmanlarga qarshi mardonavor kurashdi. Ammo jangda og’ir yaralanib, qahramonlarcha halok bo’ldi. Bugunimizni shu mo’jazzgina she’rga joylab qo’ygan shoirimizning orzulari bus-butunligicha ro’yobga chiqdi, desak, mubolag’a bo’lmaydi. Bu orzularning ro’yobi yo’lida Ma’ruf Rajabovdek qahramonlarning xizmati hech qachon unutilmaydi.

Onaxon bilan xayrlashib, yo’lga tushaman. Ko’z oldimda jang maydoni, Vatan tinchligi yo’lida jonfido qilgan posbonlarimiz qad rostlaydi. Ularning ko’zlaridagi olov hanuz barhayot, hanuz Vatanimiz chegaralarida boshini baland ko’tarib, mardona turibdi.

**Muhammadali G’AFFOROV,  
“Vatanparvar”**





## Nuqtayi nazar

# JOHIL EMAS, OQIL BO‘LAYLIK!

Kishining o‘tib-ulg‘aygan uyi, qishlog‘i, yaqinlari – Vatan degan tushunchada jamuljam. Vatan mehri avvalo insonning o‘z oilasi, mahallasi hamda tug‘ilgan yurtiga mehr-muhabbatidir. Vatanga muhabbat yuksak insoniy fazilatlardan bo‘lib, uni asrab-avaylash har bir shaxsning muqaddas burchidir.

Shunga qaramay, ayrim kimsalar uning osoyishtaligi, tinchligi va farovonligiga raxna solishga intiladi va buni amalga oshirishning turli yo‘llarini qidiradi. “Vatanni sevmok iymondandir” degan naql bor ekan, demak, iymonida shubha bo‘lgan kishilargina Vatanda hukm surib turgan tinchlikka va necha asrlardan buyon avloddan avlodga yetib kelayotgan iymoniga tajovuz qilishga intiladi.

Mamlakatimizda din ishlari borasida olib borilayotgan siyosatning umumiy mazmunini shunday ifodalash mumkinki, dunyoviy davlat sifatida din va davlat ishlarini ajratib, fuqarolarning vijdon erkinligini ta‘minlashga amaliy harakatlar qilinmoqda. Bu dinning to‘g‘ri talqini va ma‘naviy qadriyatlarni saqlash bilan birga kechadi. Bundan anglash mumkinki, radikal talqinlarga qarshi dunyoviylik va dinning mutanosib rivojlanishi zarurdir.

**Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida shunday yozadi:** “Biz ko‘p joylarda jaholatga qarshi ma‘rifat tashabbusi bilan chiqaymiz. Muqaddas islom dinini niqob qilib, boshqa ko‘chalarga kirib ketayotgan johil kimsalar bir narsani tushunmaydi yoki tushunishni istamaydi. Ya‘ni islom faqat nurli hayotga, ilm-ma‘rifatga, yaxshilikka undaydi. Hech qachon xunrezlik, qotillik, zo‘ravonlikka chaqirmaydi. Ana shu haqiqatni tan olmasdan, soxta g‘oyalarga aldanib, zararli oqimlarga kirish, terrorchi bo‘lish – bu O‘zbekiston xalqiga mutlaqo to‘g‘ri kelmaydi”. Bu fikr orqali mazhabsizlikning noto‘g‘ri yo‘lga olib borishi mumkinligi va uning oldini olish uchun ma‘rifiy ishlar muhimligini anglamog‘imiz lozim.

2023-yil 30-aprel kuni qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida:

**“O‘zbekiston – boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”** degan norma bilan yurtimizning dunyoviy davlat ekani mustahkamlandi va 35-moddasi bilan (*“Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har kim xohlagan dinga e‘tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e‘tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi”*) vijdon erkinligi kafolatlangan.

2018-yili Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi, unda diniy tarix va madaniyatni ilmiy jihatdan o‘rganishga e‘tibor beriladi. Bu markaz dinning to‘g‘ri talqinini targ‘ib qilish orqali mazhabsizlikning noto‘g‘ri yondashuvlariga qarshi kurashda muhim o‘rin tutadi. 2018-yili Toshkent islom universiteti negizida O‘zbekiston xalqaro islom akademiasining tashkil etilishi mamlakatimizda diniylik va dunyoviylikning uyg‘unligini ta‘minlash yo‘lidagi asosiy qadamlardan deyish mumkin. Shuningdek, kelajak avlodga xalqaro darajada dinning asl mohiyatini yetkazishda muhim rol o‘ynamoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi **“Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi**

**qarori** bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tashkil etildi. Mazkur markazdan ko‘zlangan maqsad buyuk mutafakkir ajdodimiz, moturidiylik ta‘limoti asoschisi Imom Abu Mansur Moturidiy va uning izdoshlari merosini chuqur o‘rganish, ularning aqida va kalom ilmi rivojiga qo‘shgan bebaho hissasini tadqiq etish va keng targ‘ib qilish, milliy-diniy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgu umuminsoniy g‘oyalar ruhida tarbiyalash, ularda ma‘naviy va ma‘rifiy qarashlarimizga yot bo‘lgan zararli ta’sirlarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishdir.

Shu bilan birgalikda, Imom Buxoriy (*Samarqand*) va Imom Termiziy (*Surxondaryo*) xalqaro tadqiqot markazlari faoliyat yuritib kelmoqdaki, ushbu markazlarda mazhablararo ta‘limning ilmiy asoslari o‘rganilib, yoshlarning radikal talqinlardan himoya qilinishiga xizmat qilmoqda. Toshkent islom instituti va boshqa diniy o‘quv yurtlarida zamonaviy ta‘lim usullari joriy etilib, zarur ma‘lumot bilan ta‘minlanmoqda.

2017-yildan boshlab O‘zbekistonda **“Ma‘rifat va diniy bag‘rikenglik” siyosati** doirasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, “Jaholatga qarshi ma‘rifat” turkumidagi kitoblar nashr etilib, unda dinning mohiyati va radikalizm oqibatlarini tushuntirilgan. Televideniye va internet orqali “ekstremizmga qarshi kurashish” mazmunidagi ko‘rsatuvlarda mentalitetimizga yot illatlar xavfi haqida ogohlantirilmoqda. Yoshlar orasida ma‘rifiy tadbirlar, seminar va muloqotlar tashkil etilib, ularda dinning asl maqsadi va o‘rni haqida tushuncha shakllantirilmoqda. Masalan, 2024-yilda O‘zbekiston yoshlar ittifoqi tomonidan 1 000 dan ortiq tadbir o‘tkazildi.

2021-yilda qabul qilingan **“Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunga** muvofiq, diniy mazmundagi barcha materiallar (*kitoblar, videolar, audio*) dinshunoslik ekspertizasidan o‘tkazib kelinmoqda. 2023-yilda **500 dan ortiq nashr tekshirilib, 30 ga yaqini taqiqlangani** bu ishning ahamiyatini oshirmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Din ishlari bo‘yicha qo‘mitasi internetda tarqalayotgan kontentlarni doimiy ravishda kuzatib, radikal va dinga zid g‘oyalarni aniqlashda faol ish olib bormoqda.

**O‘zbekistonda 16 ta diniy konfessiya rasman ro‘yxatdan o‘tgan** va ularning faoliyati qo‘llab-quvvatlanmoqda. Masalan, 2023-yilda Toshkentda pravoslav cherkovi va buddaviylik ibodatxonasi qayta rekonstruksiya qilindi. “Totuvlik” va “Do‘stlik” kabi umummilliy festival va tadbirlar doimiy ravishda o‘tkazilib, ularda turli din vakillari faol ishtirok etmoqda.

O‘zbekiston BMT, Islom hamkorlik tashkiloti kabi xalqaro institutlar bilan dinlararo muloqot va bag‘rikenglikni rivojlantirish bo‘yicha samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘ygan hamda turli tadbirlar va xalqaro konferensiyalar o‘tkazilmoqda. AQSh, Fransiya va Rossiya kabi davlatlar bilan ekstremizmga qarshi kurashda tajriba almashilmoqda, bu esa mazhabsizlikning radikal shakllariga qarshi samarali choralar ishlab chiqishga yordam bermoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda millatlararo totuvlik, dinlararo bag‘rikenglikni ta‘minlash jarayoni samarali amalga oshirilmoqda. Ushbu ishlar diniylik va dunyoviylik o‘rtasida mutanosiblikni saqlashga xizmat qiladi.

**Alisher MADRAHIMOV,**  
**Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma‘naviy tadqiqotlar instituti ilmiy xodimi**





# AMIR TEMURNING VASIYATI

**Hammamizga ma'lumki, sohibqiron Amir Temur 1405-yil 18-fevral kuni Xitoyga yurishi paytida O'trorda vafot etgan.**

Manbalarda aytilishicha, o'sha yili qattiq qish bo'ladi, lashkarga talafotlar yetadi. Amir Temur ham sovuqdan qattiq shamollaydi. 11-fevral kuni uning xastaligi zo'rayib ketadi. Sohibqironning shaxsiy tabibi Mavlono Fazlulloh Tabriziy va boshqalarning sa'yi harakatlari ham zoye ketadi. Kundan kunga uning xastaligi zo'rayib boradi. Bir kuni Amir Temurning tushiga otasi kirib, uning otidan yuganini yechib, chakalakzorga kirib ketadi. Sohibqiron shundan angelaydiki, vafoti yaqin.

**SHARAFIDDIN ALI YAZDIYNING** "Zafarnoma" asarida uning vafoti bayoni juda ta'sirchan tarzda keltirilgan. Amir Temur ahvoli kun sayin juda og'irlashib borsa-da, eng so'nggi damlargacha aql-u hushini yo'qotmaydi. Muarrix tomonidan Amir Temurning vafoti oldidan o'z oilasi, amirlar, butun mamlakatga taalluqli juda ham katta ahamiyatga molik bo'lgan vasiyat qoldirilgan va uning matni ushbu asarda keltirilgan.

*"Tahqiq bilurmenkim, ruhning qushi bu qafas-qolipdan ketgusi turur, xudoyg'a panoh ettim va sizlarni xudoyg'a topshurdim. Kerakkim, men borg'ondan so'ng faryod-u fig'on qilmag'aysizkim, hech foyda qilmas. Va meni xudoydan omur-zish tilangiz va ruhimni fotiha va duo va takbir bilan shod qilg'aysiz. Alhamdu lillohkim, bugun Eron-u Turonda kishiga majol yo'q tururkim, muxolifat qilg'ay. Va Hazrat Haqdin umidim borkim, agarchi gunohim ko'p turur, ammo bu jihatdin menga rahmat qilg'aykim, zolimlarning eliklarini mazlumlardan qisqa qilibdurmen. Va qo'ymadimkim, mening davrimda zaif kuch yegay".*

Sohibqironning bu bilan umr bo'yi adolat va haq yo'lida yashagani, zolimlarning zulmini yo'q qilgani, mazlumlarni dodiga yetganini uning so'nggi manzil sari otlangan davrda aytgan so'zlaridan ham anglash mumkin. Bu uning yuksak ma'naviyat sohibi bo'lgani, adolat va haq yo'lida katta jidd-u jahd ko'rsatgani, doimo hushyor va ogoh bo'lgani, har yerda qonunlar ijrosini ta'minlay bilganidan darak beradi.

**Amir Temur o'z vasiyatida bu dunyoning vasvasalariga uchmaslikni yana bir bor ta'kidlaydi. U, jumladan, shunday so'zlarni aytib o'tgan:**

**"Agarchi dunyo vutu'i va saboti yo'q turur, nechukkim menga vafot qilmadi, sizlarga ham qilmag'usidir".**

Ulug' bobokalonimiz Amir Temur o'z vasiyatida davlat ishiga biror daqiqa bo'lsin, loqaydlik va befarqlik bilan qaramaslik lozimligini aytadi.

*"Bale dunyo ishini muhmal qo'ymangizkim, sababi oshub va musulmonlar tashvishda bo'lg'aylar. Aning uchunkim, qiyomat kunida so'rarlar. Emdi Pir Muhammad Jahongirkim, valiyahd qilibmen va o'rnumga qoyimmaqom etibmenkim, Samarqand viloyati (saltanat taxti - Sh.O') aniki bo'lg'ay. Va istiqloq va tamkin bila o'lturub, mamolik tadbiridan va cherik va ra'iyat holidan xabardor bo'lg'ay". Sizlar kerakkim, anga muti' bo'lub, ittifoq bila aning ishiga mashg'ul bo'lgaysiz, to olam buzulmagay va musulmonlarga tashvish va zahmat bo'lmag'ay.*

*Va necha yillik sa'yi qilg'onim zoye' bo'lmag'ay. Va andoq kerakkim, sizning ittifoqingizni bilib, el yiroqdan hisob olg'aylar va hech kishiga ul quvvat bo'lmag'aykim, muxolifat qila olg'ay".*

**AMIR TEMUR** o'zidan keyin saltanat taxtini Pir Muhammad Mirzoga vasiyat qiladi va uning so'zidan chiqmaslikni tayinlaydi. U necha yillik harakatlarim zoye ketmasin deb avlodlarini birlashishga chaqiradi, ammo, afsuski, nizo va boshboshdoqliklar uning vafotidan keyin boshlanib ketadi. Saltanat taxtiga Pir Muhammad Jahongir emas, uning o'zga nabirasi Xalil Sulton Mirzo kuch bilan o'tiradi. Bu esa Temuriylar o'rtasida katta nizo va adovatlar kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

**Bu nasihatdan so'ng dedikim: "Beklar va buzurglar barcha hozir bo'lub, ahd qilib ont ichsunlarkim, vasiyat qilg'on so'zumdan chiqmag'aylar. Va o'zga beklar va sardorlarkim g'oyib tururlar alar taqi ushbu dastur bilan amal qilg'aylar",** deya yozadi Sharafiddin Ali Yazdiy.

Bu gaplarni eshitib, beklar, uning ahli oilasi izzitirob bilan yig'laydi. Amir Temurning eng sadoqatli va jasur beklari Shoh Malik va Shayx Nuriddinbek "Jonimiz sizga sadaqa, koshki bizning jonlarimizni olib, sizning joningizni bag'ishlag'ay", dedi.

**Sohibqiron dedi:** "Foyda yo'qturur, bormoq kerak. Ammo sizlar ishlaringizda mardona bo'lunglar".

**Alar dedilar:** "To jonimizda bir ramaq bo'lg'usidir, hazratning amr-u farmonidan chiqmag'umuztur".



Andan so'ng arzadosht qildilarkim, "Bo'lsa Amirzoda Xalil Sultonga va beklarkim, Toshkandda tururlar, barcha beri mutavajjih bo'lg'aylar. Har nechakim biz, bandalar sizning so'zlaringizni alarg'a aytqaybiz. Ammo ulkim, alar sizning muborak tilingizdan eshitsalar, o'zga bo'lg'usi turur".

Amir Temur ularning O'trorga kelishiga fursat yo'qligi, ruh qushining tez soatlarda uchib ketishini aytib, quyidagilarni aytgan: "Vaqt tang turur va mundin artuqqa majol yo'qturur. Alarkim, g'oyib tururlar, hozir bo'la olmaslar va diydor qiyomatga qoldi. Va sizlar bila taqi muloqot ushbu turur. Bi hamdil-lohkim diniy murodotidin hech nima ko'nglumda orzu qolmayturur". Sohibqiron Amir Temur kichik suyukli farzandi Shohrux Mirzoni ancha vaqtdan beri ko'rmagan edi, u vafoti oldidan: "Magar farzand Shohruxnikim, bu zamonda ani ko'rmadim", deya diydor qiyomatga qolganini aytadi.

Amir Temur o'zidan keyin avlodlari o'rtasida bo'ladigan nizo va muxolifatchiliklarni sezganday, takror-takror ular o'rtasida yakdillik va birlik bo'lishi kerakligini aytib o'tadi.

**AMIR TEMURNING SO'NGGI NASIHAT SO'ZLARI USHBU BO'LGAN:** "Har nekim mamlakat maslahati uchun ayttim, qulog'ingizda tutunglar va ra'oyo va fuqarou miskin holatidin g'ofil bo'lmag'aysiz. Va qilichning sopini mahkam tutungiz, to mendek podshohliqdin barxurdor bo'lg'aysiz. Eron-u Turonni muxoliflardin xalos qilg'aysizlar. Nechukkim men adl-u ehson bila olamni obod etibmen. Agar mening vasiyatimga amal qilib, adl-u dod qilsangiz, ko'b yillar davlat va mamlakat sizlarda qolg'usi turur. Va agar sizlar arosida muxolifat bo'lsa, yaxshi bo'lmag'usidir".

Shundan so'ng hofizlar Qur'on o'qishga mashg'ul bo'ldilar, Mavlono Haybatulloh ichkari kirib, sohibqironning boshi uzra Qur'on xatmig'a mashg'ul bo'ldi.

1405-yili 18-fevral kuni kech kirganda namozshom va xufton orasida tavhid kalimasini necha bor takrorlagach, sohibqironning joni uzildi.

**Sharafiddin Ali Yazdiy "Ul muborak hazratning yoshi yetmish birda edi, muvofiq adadi "alif+lom+mim" kim, Qur'onning a'zam suralaridan turur. Va podshohlig'i o'ttiz olti erdi. Va hazratning saltanatining adadi bila muvofiq erdikim, ul hazrat o'g'lonlari va nabiralari o'ttiz olti erdi",** deb yozadi.

Tarix zarvaraqlarini o'qir ekanmiz, Amir Temurning vafoti oldidan ham xalq va el-ulusni o'ylagani, farzandlariga ana shu yo'lni vasiyat qilganini anglab yetamiz.

Bu vasiyat nainki uning farzandlari, nabiralari, balki uning vorislari bo'lgan bugungi avlodga ham tegishlidir. U o'zining yuksak ma'naviy jasoratlarini, ibratli hayoti bilan ko'plab olim-u ulamolar, davlat arboblarni, xalqlarni hayajonga solgan, uning oltin merosi asrlar osha eskirmagay, o'zining dolzarbligini yo'qotmagay va bu tuganmas boylik allaqachon butun insoniyatning oltin merosiga aylanib ulguragan.

**Shohista O'LJAYEVA,**  
tarix fanlari doktori, professor



Taassurot



# YUNON YOZUVCHISI SAMARQAND VA BUXORODA

*Men o'zimni sehrli ertaklar shahrida,  
"Ming bir kecha"dagi shaharda his  
qilyapman.*

*...Men yana bir necha kun hali Samarqand  
jamolidan to'yish va farzni ado etish uchun  
qolaman. So'ng Buxoro! Oh! Naqadar mo'jiza  
u yerdagi Dunyo!*

*...Oh! Til va lug'at ojiz. Bu shaharni  
ko'rishim bilan she'rlarim menga ma'nosiz,  
ta'nsiz va rangsiz tuyuldi.*

*...shahar o'zining sharqona jozibasi bilan  
Quddusni dog'da qoldiradi. Bu yer Sharqning  
yuragi.*

1929-yil 11-mart kuni taniqli yunon yozuvchisi Nikos Kazantzakis Uzoq Sharq va Sibirga safaridan keyin Moskvaga qaytadi. U yerda Turkistonga borish uchun ruxsat so'raydi. Bir haftada ham hukumatdan javob ololmagan yozuvchi sayyoh ko'hna tamaddun beshigi – Turonzaminga ijozatsiz borishga qaror qiladi. Va yo'lga chiqadi.

Toshkentga yetib kelgan Nikosdan hech kim hujjat talab qilmaydi. U bundan buyog'iga xavf yo'qligiga umid qilib, bolaligidagi orzusi Samarqand, Buxoro, Marv sari oshiqadi.

Yuqoridagi iqtiboslar ana shu sayohat davomida yozilgan maktublardan olingan. Bu maktublarni o'qir ekansiz, ko'rkam va latofatli Turkiston ko'z o'ngingizda yaqqol namoyon bo'ladi. Cho'lpon she'rlari ta'mini sezasiz.

Yana shu narsa ayon bo'ladi, bolsheviklar hukmronligining ilk davrlari, ya'ni XX asr boshlarida Turkiston haqida bitilgan xotira va esdaliklarning mustamlakachilar

tomonidan naqadar tuban niyat va qarashlar bilan yozilganini anglaysiz.

Krit orolida tug'ilgan yunon farzandi, Afrika, Osiyo va Yevropaning bir qator mamlakatlarini kezib chiqqan mashhur adib Nikos Kazantzakisning sermahsul ijodi kishini hayratga soladi. U adabiyotning ko'p janrlarida ijod qilgan. Nikos Kazantzakis drama, she'riyat, romannavislik, publitsistika, nasrning o'ziga xos turlari: tarixiy esselar, sarguzasht qissalar, hikoyalar, shuningdek teatr va kino uchun ssenariylar, bolalar uchun o'quv kitoblari bilan ham o'z davrida katta shuhrat qozondi. Ssenariylarining eng mashhurlari "Muhammad alayhissalom" va "Budda"dir.

Endi bundan roppa-rosa 96 yil burungi aynan mart oyidagi Samarqand va Buxoroga Nikos Kazantzakis ko'zlari bilan boqing.

Uning muhabbat va shavqi sizga ham yuqadi shubhasiz.

Nikos KAZANDZAKIS

## SAMARQAND – SHARQNING YURAGI

TURKISTON. 1929-YIL 26-MART

Biz Toshkentga yetib keldik. Endi Samarqand tomon oshiqmoqdamiz. Hech kim mendan hujjat talab qilmadi, demak, boshqa hech qanday xavf yo'qligiga umid qilsam bo'ladi. **Ertaga peshinga qarab men Iskandar va Amir Temurning mashhur shahriga qadam qo'yaman. Men bundan behad baxtiyorman, ammo bir vaqtning o'zida afsusdaman, chunki siz men bilan birga emassiz.** Men o'z olmalari bilan mashhur Toshkentdan keyingi birinchi bekatda bir necha daqiqa tushib qoldim. Hamma yoq qorong'i edi. Ammo men u yerda mo'jizaviy olmalarni ko'rdim. Qo'llarimga sig'ganicha olganimda poyezd qo'zg'algan edi. Men yugurdim. Unga osilib chiqib oldim. Ajoyib olmalar, men yangitdan his qildim, bir kun kelib o'lsam, qabrim uzra turganingizda hayotimning eng katta quvonchlaridan biri mevalar bo'lganini unutmang. Va ulardan menga ko'proq olib keling. Qachonki men ulardan to'yib, so'ng "ta'til"ga chiqay.

\* \* \*

Aziz do'stim!

Men Turkistonga ijozatsiz kirib keldim, chunki **Samarqand-u Buxoroni ko'rish mening orzum edi. Bolaligidan buyon bu shaharlar meni o'ziga tortadi.** Men buni o'zimga farz deb bildim va bo'yimdan soqit qilish uchun men u yerlarni ziyorat qilishga majbur edim.

Qanchalik ko'p sayohat qilsam, shunchalik sayohat uchun faqatgina hurlik ehtiyoji zarurligini ko'p his

qilardim. Ruhim va yuragimni qayg'uiga g'arq qilgan barcha hislarni yengish va ulardan o'zimni xalos etishga qodir emasman. Ularga yo'liqqan paytim esa faqatgina yorug' kunlar sari intilardim.

**O'rusiya endi ortda qoldi. Menga u tomondan endi biror tahdid xavf solmaydi. Men ham uni orzu qilmayman. Hammasi tugadi. Bu xuddi mo'jizaga o'xshardi. Behad mamnunman.** Volga daryosi ikki kiprigim orasidagi katta Vena kabi oqadi. U hali-hanuz ko'z o'ngimda. Men buni inkor etmayman, u mening qonimga aylandi. Agar biror narsani orzu qilsam, men O'rusiya bilan, yana Falastin, Ispaniya, Sinay cho'qqisi, yunon orollari, xullas, ko'rganlarimning barchasi bilan birga bir narsani orzu qilmoqdaman, chunki biz bir tan-u bir jonmiz. Sirena bo'lsa, non va moyga o'xshaydi. Va u meni boqadi. Men undan mamnunman, chunki tez-tez yuragimni otashin tizim kabi his qilaman.

Tun edi. Biz Toshkentga keldik, ammo men u yerda to'xtamadim, chunki men Samarqand sari oshiqardim.

Ertaga peshinda men u yerda bo'laman. **Buyuk Iskandar, Temur, u sevgan ayol Bibixonim... Men mashhur masjidlarni ziyorat qilishni intizorlik bilan kutardim.** Ana endi yo'lda ketayotib, men nihoyat Sharqqa qadam qo'yganimni his qildim. Qorlar erib borar, Amudaryo va Orol asta-sekin muzlardan xalos bo'lar edi. So'ngra Qozog'istonning bepoyon cho'llari



yastanib yotar, keyin ikki teva, tomlari kosaga o'xshagan uylar, xilma-xil rangli kiyim kiygan erkak va ayollar, so'ng qishloqlarda bo'y cho'zgan minoralar bo'm-bo'sh olmazorlar va hozir xazon bilan qoplangan, bir necha kundan so'ng sabza uradigan o'simliklar bilan qoplanadigan Zamin va Quyosh.

Ozodlik, yorug'lik, sokinlik. Osiyo yuragida yana bir yoqimli bahor hukmron. Oldinda Samarqand kutmoqda, uzoqroqda Buxoro va yana ilgariroqda hozir biz Marv deb ataydigan, bir asr oldin samum shamoli ko'mib tashlagan juda eski shahar xarobalari...

Men sizga yozayotgan paytda vagon ichida oldimdagi mo'jazgina stolchada bir uyum Toshkentning mashhur olmalari turibdi.

Siz men hozir yonimda bo'lishini juda istagan yagona insonsiz.

#### SAMARQAND. 1929-YIL 27-MART

...Men o'zimni sehrli ertaklar shahrida, "Ming bir kecha"dagi shaharda his qilyapman. Tongda xonamning deraza pardasini ko'tardim. Tashqarida yalangliklar, qiyg'os gullagan bodomlar! Quyosh, harorat, taft, ko'kara boshlagan daraxtlar, bog'lar... Rangli yo'l-yo'l chopon kiygan musulmonlar, guldor kiyim kiygan musulmonlar... Men tush ko'rgan haqiqiy Sharq! O'sha o'rkachli tuyalar, ajoyib eshaklar...

Kun yarim bo'ldi, men bu ajabtovur bozorda tentirashdan to'ymayman. Musulmonlar, gulga burkangan olomon, mo'g'ulmonand qiyofalar, ayollar esa zulmat paranjilarida peshtoqi ko'm-ko'k va sirlangan gulli naqshlar bilan mohirona bezalgan, Yerevandagi obidaga o'xshab ketadigan bebaho xarobalar atrofida jamuljam.

Temur maqbarasi va Bibixonim qabri shaharning qoq o'rtasida, bozor yaqinida joylashgan onda-sonda madrasa va masjid minoralari va sirlangan gumbazlar ko'zga tashlanadi. Uning atrofida yo'l-yo'l va guldor uvada kiygan odamlarning gaplari ohangidan hayotdan noroziliklari sezilib turar edi. Atrof loyqa, gullagan bodomning xushbo'y hidi va shu bilan birga ko'lmak suvlarning badbo'y hidi hamma yoqda anqib turadi.

Havo juda issiq... Men kamzulsiz yurardim. Xo'ja Murodov degan savdogar meni uyiga boshlab, boshpana berdi. Uyi paxsadan qilingan bo'lib, salqingina edi. Oyoq ostiga behad go'zal gilamlar tashlangan, to'rt tomondagi simqafaslarda bedanalar saqlanar edi. Ichkarida eski sandiqlar, arabiy xurmachalar bor edi. Ayollar meni ko'rib, ichkariga kirib ketdi. Xo'ja bir sandiqni ochib, Iskandar rasmi tushirilib zarb qilingan tangalarni ko'rsatdi. Men undan bir qadimiy so'zana va Bibixonim qabrining sirlangan parchasini sotib oldim, shu bilan birga zardo'zi do'ppilar ham xarid qildim.

\* \* \*

Baxt va shodlik hamrohligida men Mirzo Ulug'bek, Tillakori va Sherdor kabi ko'm-ko'k naqshindor sopol parchalari bilan bezalgan madrasalar bilan o'ralgan Registon maydoni

va mashhur Samarqand bozorida sayr qildim. Ularning orqasida buyuk Temur maqbarasi va u jonidan ortiq ko'rgan Bibixonim qurdirgan Sharqning eng go'zal masjidi. Men zar bilan tikilgan o'zbek kallapo'shini boshimga kiyib, uzum va qovun bilan tamaddi qildim. Masjidlar hovlisining qiyg'os gullagan bodomlari ostida sayr qildim.

Bahor, havo issiq. Minglab musulmonlar ko'chalarni to'ldirib, boshlarida har xil rang va shaklda eski-tuski sallalardan o'rab olgan edi. Odamlarning g'ala-g'ovuri va gullagan bog'larning rohatbaxsh hidi, men aminmanki, bu kun hayotimdagi eng unutilmas kunlardan biri bo'lib qoladi. Men yana bir necha kun hali Samarqand jamolidan to'yish va farzni ado etish uchun qolaman. So'ng Buxoro! Oh! Naqadar mo'jiza u yerdagi Dunyo! O'z oyog'ingda yo'l yurishing, ikki ko'zing bilan ko'rishing qanday baxt shu paytda!

Poyezdda men "Sarguzashtlar"-imning ikki to'plamini yo'qotib, so'ng yo'l-yo'lakay imkoni boricha to'ldirishga harakat qildim. Ammo men ularni unutibman, esimga to'laligicha kelmayapti. Men Osiyoning yuragida g'arq bo'lib, baxtdan o'zimni yo'qotayozgan edim va balki, o'shanda uni yo'qotgandirman. Menga hozirgina telefon qilib yo'qotilgan qismlarning topilgani va ertaga Samarqandga yuborilayagini aytdi.

Oh! Til va lug'at ojiz. Bu shaharni ko'rishim bilan she'rlarim menga ma'nosiz, ta'msiz va rangsiz tuyuldi.

Men qanday qilib katta gumbazli Bibixonim masjidi minorasini bayon eta olay?!

Qanday qilib faqat so'zlar bilangina bugun bozorda ko'rgan, bo'yniga son-sanoqsiz va har birining uchida oltin zirak bo'lgan taqinchoqlar osilgan, kiprik va tirnoqlari bo'yalgan, qo'g'irchoqqa o'xshagan, nigohi tahlilikali tus olgan qizaloqni, hatto shu Sharqning sodda ruhiyatini, shu yetti yoshli qiz qiyofasini qanday bayon aylay?!

#### SAMARQAND. 1929-YIL 28-MART

...Men kun bo'yi masjidlar va Chorsuda kezib yurdim. Ko'chalarda qovun va uzum yeb, boshimga paddo'z kallapo'sh kiyib, barcha ko'rgan manzaralarimdan xursand bo'ldim.

Quddusdagi Umar masjidi juda go'zal, chunki u bus-butun saqlangan. Bu yerda bo'lsa, ko'pgina masjidlar bor. Ammo xarob ahvolda. Hali unda, hali bunda, chala ko'k gumbazlar, sarg'aygan ustunlar ko'zga tashlanadi. Ba'zida minoralar ham Yerevandagiga o'xshab qiyshayib qolgan... Ammo shahar o'zining sharqona jozibasi bilan Quddusni dog'da qoldiradi. Bu yer Sharqning yuragi. Bu yerdagi aholi qiyofasi, rang-barang kiyimlari, kallapo'sh-u oq, sariq va ko'k sallalari, gondolalardek (nasroniy dindorlar poyabzali) tikilgan poyabzallar bir fors miniatyuralarida ko'radigan



tasvirlarning xuddi o'zginasi. Siz men bilan bo'lishingizni naqadar orzu qilmoqdaman hozir!

#### BUXORO

Men Buxoroga yetib kelganimda kech tushgan edi. Vokzalni ayollar ko'rib, esdan og'ib qolmasliklari uchun uni shahardan 13 kilometr narida quribdilar. Kunning jazirama harorati pasayib, yoqimligina shabada esib turardi. Bir zumdan so'ng Buxoro shahrining qoq markaziga borib qoldim. Aholi gavjum, musulmonlar xufton namozini o'qib qaytardi.

Tasavvur qiling, ko'cha to'la arximandrit va metropolitlar boshlarida uzun metralar, qo'llarida esa yelpig'ich. Va bulardan ko'cha liq to'lgan, buni ko'z oldingizga keltira olasizmi? Yana choyxona xizmatkorlari, sho'rdanakfurushlar, tilanchilar ham ko'chada. Xullas, hammasi ko'chada. Sahna o'rtasida tancha, xushro'y bir bola va qariya hofizlar g'azal aytmoqda. Ziravor, jasmin va zax hidi qo'shilib anqimoqda...

Butun eski shahar usti yog'och bilan qoplangan. Xuddi uyda sayr qiladiganga o'xshaydi kishi. Bittagina qo'rqinchli mehmonxonasi bor ekan. Men tunning yarmigacha tentirab, qorong'ida bahaybat, charog'on va bo'm-bo'sh masjidlarni kezib chiqdim. Shu kecha juda yomon uxladim.

Tong saharlab men yana shahar kezishni boshladim.

Xulosa qilib shuni aytishim mumkinki, Buxoro Samarqandga nisbatan sharqonaroq. Soya va ko'kalamzorlik ham kam. Uylar past ayvonli va barchasi loysuvoqdan. Devorlarda faqat bittagina deraza bor. Xuddi qal'alardagi mudofaa tuynugiga o'xshaydi. Bugungidek quturgan shamol esganda esa ularni ham xarob qilib yanada avj oladi. Bu yerning odamlari ham samarqandliklardek rangdor emas.

Hamma yoq chang, kulrang tusga kirib olgan tuproqqa o'xshaydi. Va birdan mana shu chang uzra go'zal qubbalar, masjidlarning ajoyib gumbazlari ko'zga tashlanadi. Bu gumbaz o'zining turtib chiqqan uchi bilan birga ayolning go'zal siynasiga o'xshab ketadi.

Bu yerning tamadduni davrida odamlarning bari birlashib bir fikrni, bir g'oyani qanday



qo'llab-quvvatlaganlarini, unga qay darajada o'zlarini baxshida etganlarini tushunib yetasiz.

Loy va somondan barpo qilingan bu turarjoylarning barchasi ular ichra xudolariga atab tiklangan binolarning savlat to'kib turishi uchun ataylab pastlab qurilgan. Buxoro masjidlari naqadar viqorli! Yevropadagi va hatto o'sha Quddusdagi Umar masjidi ham pastroq, bu yerda esa ular osmonga bo'y cho'zgan. Gumbaz esa unga viqor va salobat baxsh etuvchi go'zal doiraga suyanib turadi. Bozor ko'zga zo'rg'a tashlanadi. U ham bo'lsa sovetlashtirilgan. Men kun bo'yi siz uchun Buxoroning asl uzugidan qidirib behuda urindim. Hozirgi tillafurushlar ruslar va kavkazliklar. Siz ularning qanaqa arzimagan taqinchoqlar bilan savdo qilishlarini tasavvur qilolmaysiz.

Xulosa shuki: Samarqand men uchun iliq va rangdor Sharqqa o'xshaydi. Buxoro bo'lsa, Sharqona bir mumtoz unsur bor: tartib, rang va oddiylik. Oddiylikni xush ko'radigan qalb uchun uch marotaba jozibaliroq bu shahar.

Baxtga qarshi bularning ikkisi ham o'z nihoyasiga yetib bormoqda. Ya'ni o'z qalblarini yo'qotib, Moskvadan rang olmoqda, Moskva bo'lsa, Yevropadan, Yevropa esa Amerikadan.

Bir asr oldin cho'l bag'riga singib ketgan katta shahar – Marv tomon yo'l olaman. Men Buxoroda ko'p qololmayman, aks holda, men olgan taassurotlar so'nib qolishi mumkin.

Fransuz tilidan  
Ramazon BOBOKALONOV,  
Suhrobjon BOBOKALONOV  
tarjima qilgan.



# GLOBAL EKOMUAMMOLAR XAVFI

Bundan roppa-rosa 10 yildan so'ng Yer sayyorasi qanday ko'rinishda bo'lishi haqida o'ylab ko'rganmisiz? Insonlarning hayot tarzi, iste'mol mahsulotlari, tashqi ko'rinishi qay darajada o'zgaradi, deb o'ylaysiz?

O'tgan asrlar davomida misli ko'rilmagan ekologik muammolarga duch keldik. Insoniyat sivilizatsiyasida hali mutlaqo kuzatilmagan global isish, dengiz va Yer ekotizimlarining keskin kamayib borishi, Yer yuzining turli mintaqalarida qurg'oqchilik, suv toshqinlari kabi salbiy holatlar barchamizga ayon. Ko'pchilik foydalanishga yaroqli suvimiz butunlay tugashini bilmaydi. 2030-yilga kelib suvga bo'lgan talab va suv ta'minoti orasida 40 foiz tafovut bo'ladi. Ya'ni buning oldini olish uchun bizda 7 yil vaqt bor!

Toza ichimlik suvi yetishmovchiligi muammosi aholi sonining keskin oshishi va toza suvdan nooqilona foydalanish natijasida vujudga kelmoqda. Atlantika okeanining Yevropaga tutashgan qirg'oqlari chiqindi bilan qoplangan, hatto ba'zilar okeanga oqishi natijasida milliardlab suvosti jonzorlarining qirilib ketishiga sabab bo'layotgani ehtimol, sizga ma'lum, balki umuman qiziq emasdir.

Issiqxonalar va avtomobillarning ko'payishi, elektr energiyasidan uzluksiz foydalanish oqibatida atmosferada keskin o'zgarishlar ro'y bermoqda. Bu o'zgarish natijasida tabiiy suv ta'minotidan tobora ayrilmoqdamiz. Masalan, ko'pchilik daryolar yomg'ir va qor suvlaridan

to'yinadi. Anomal isish oqibatida yomg'irning kam miqdorda yerga tushishi yoki tog'larda faqatgina ma'lum muddatda qor turishi oqibatida dengiz va daryolar sathining tushishi, ko'llarning tuz bilan qoplanishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, O'zbekistonda asosan, vohalarda suv ta'minoti muammosi allaqachon keng qamrovli muammoga aylangan.

Urbanizatsiyaning kengayishi, aholi tomonidan o'rmonlardagi daraxtlarni kesib, yerlarning o'zlashtirilishi natijasida toza havo tanqisligi va qum bo'ronlari kabi tabiiy falokatlar ro'y bermoqda. Atrof-muhitga insonlar tomonidan to'xtovsiz zarba berilishi oqibatida tabiiy ofatlar, jumladan tez-tez yer silkinishlari, suv toshqinlari, turli kasalliklarning tarqalishi kabi muammolar vujudga kelmoqda. Bunga misol tariqasida zamonaviy atom bombalarining portlashi oqibatida milliardlab inson vafot etdi va hozirgacha o'z ta'sirini nafaqat insonlar, balki hayvonot va o'simliklar genlarining o'zgarishida ko'rsatib kelmoqda. Ukraina hududida joylashgan Chernobil shahrida atom elektr stansiyasi portlagandan buyon biror urug' unmaydi, hayvonlar genlari o'zgarishi oqibatida g'ayrioddiy ko'rinishga kirgan.

Ozon qatlamining yemirilishi esa eng katta va e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydigan muammodir. Chunki ozon qatlami Yerning himoya qalqoni hisoblanadi. U Yerni koinotdan tushishi mumkin bo'lgan barcha kometalar, uchar jinslar va turli toshlardan himoya qiladi. Tasavvur qiling-a, u yemirilsa, Yerdagi hayot davom etadimi? Aslo, yo'q!

Karbonat angidridning atmosferaga katta miqdorda ajralib chiqishi natijasida global isish va ob-

havo holatiga keskin ta'sir etuvchi, kundalik hayotimizda muntazam foydalanadigan neft, ko'mir va gaz singari yoqilg'ilarni bioyoqilg'ilar bilan almashtirish eng yaxshi fikr. Ammo o'tgan o'n yil davomida insonlar bioyoqilg'i sanoati bilan bog'liq munozarali savolga duch keldi, ya'ni u chinakam tabiatga zarar bermaydigan yechim bo'la oladimi? Ko'plab o'simliklardan bioyoqilg'i tayyorlash mumkin, ammo qaysi turdagi ekin va usullardan foydalangan ma'qul? Bioyoqilg'i sanoatining eng katta kamchiliklaridan biri uning oziq-ovqat bozori va yerdan foydalanishga bo'lgan ta'siridir. Bulardan biri, bevosita bioyoqilg'i ekini sifatida daraxtlarning kesilishi bo'lishi mumkin. Ammo bilvosita ta'sirlarini tabiat uchun zararli deyish to'g'ri bo'lmaydi.

Masalan, Braziliyada AQSh fermerlari makkajo'xorini bioyoqilg'i sifatida ishlatishni boshlagan bir paytda bu o'simlik Braziliya fermerlarini ham o'ziga tortuvchi bioekinga aylandi. Bu esa, o'z navbatida, daraxtlardan xoli ekinzorlarga nisbatan talabni oshirdi. Lekin dunyoda daraxtzorlarni kesish fermerlar uchun iqtisodiy foyda keltirayotgani bilan bir qatorda yashil tabiatni xavf ostiga qo'yayotgani ham sir emas. Bundan tashqari, bioyoqilg'i uchun mo'ljallangan ekinlar daraxtlardan xoli yerlarda ekilgan taqdirda bu fermerlardan o'z vaqtida parvarishlash, ko'p miqdorda o'g'itlashni talab qiladi.

Turli o'simliklardan yog'larini ajratib, ulardan avtomobil va turli texnikalar uchun yonilg'i tayyorlash jarayoni qazilma yoqilg'isini qayta ishlashdan qimmatroq hisoblanadi. Bu muammoni bartaraf etish maqsadida olimlar izlanmoqda. Jumladan, o'simliklarning genetikasiga ta'sir qilish orqali ularning nafaqat meva va urug'lari, balki barglaridan ham yog' olishni reja qilgan. Bu usul orqali ular bir xil miqdordagi ekindan ikki baravar ko'proq yog' olib, terim va yog'ni ajratish jarayoni uchun xarajatni kamaytirish mumkin.

Bioyoqilg'i sanoatida ommalashib borayotgan texnologiyalardan yana biri gidrotermal suyuqlantirishdir. Ushbu jarayonda o'simlik molekulari issiqlik va bosim orqali parchalanib, kislorod chiqarib yuboriladi. Shunday qilib, xomashyo qayta ishlanadi va tabiiy yog' ham tozalanadi. Bu usul orqali undan turli yoqilg'i tayyorlash mumkin. Gidrotermal suyuqlantirishning asosiy ustun jihatlaridan biri shuki, bu jarayonda turli o'simliklardan foydalanish mumkin. Bu jarayon quyosh panellari va shamol elektr stansiyalaridan olingan energiya bilan amalga oshirilsa, u yanada ekologik barqaror bo'ladi.

Bioyoqilg'i ishlab chiqaruvchilar kelajakda faqat yoqilg'i uchun mo'ljallangan ekinlar bilan cheklanib qolmay, balki qo'shimcha foyda keltiruvchi o'simliklarni tanlash imkoniga ega bo'ladi. Masalan, kanop o'simligi odatda, yog' va gazlama tayyorlash uchun ishlatiladi. Hozirgi kunda ko'plab avtomobil zavodlari allaqachon undan tovush o'tkazmaydigan qorishma sifatida foydalanmoqda. Hatto suv o'tidan nafaqat bioyoqilg'i sifatida, balki suvni tozalash maqsadida foydalanish mumkin. Bioyoqilg'i sanoatini O'zbekiston hududida rivojlantirish orqali yangi texnologiyalardan foydalangan holda kerakli miqdordagi yoqilg'ini ishlab chiqarish va neftdan voz kechish imkoniyati mavjud.

Muxtasar aytganda, muammolarga yechim toza ichimlik suvidan oqilona va odilona foydalanish, axlat va chiqindilarni duch kelgan joyga uloqtirmaslik, elektr energiyasidan to'xtovsiz va tartibsiz foydalanmaslik va yashil o'simliklarga e'tiborli bo'lishdan boshlanadi. Balki global ekomuammolarni bartaraf qilish uchun o'zimizni, lekin o'zimizni bu falokatlarga sababchi bo'lishdan qutqarishimiz mumkin!

**Maftuna PARDAYEVA,**  
TDSu talabasi





## Kechinma

Bu gal ham armiyaga olishmadi.

– Ona, men ketaman. Orzularim armonligicha qoladiganga o'xshaydi. Hammadan yaxshi bajardim mashg'ulotlarni, sog'lig'im ham joyida. Qishloqda ham bosh ko'tarib yurolmay qoldim. Ko'cha-ko'yda odamlar “Bu yil ham olishmabdi, kasalligi bormi yo”, degandek qarashyapti. Ona, men ketaman. Biron yil musofir yurtida ishlab uy-joy qilay, bu yerda birim ikki bo'ladiganga o'xshamaydi. Onam ma'yus termiladi:

– Hamma narsaning vaqti-soati bor, bolam. Musofir yurtida seni kutib turgani yo'q, qachon kelarkan, deb.

Ichidan mendan ham ko'proq kuyinayotgani ko'zlaridan aniq ko'rinib turibdi. Bildirmayin, deb kulib qo'yadi.

– Otang ham dala ishlarida bir o'zi qiynalayotgandi, goh unga chop, goh bunga, ancha charchab qolgan. Kechalari bel og'rig'idan azob chekib chiqadi. Otangning qo'lidan ishini olib, og'irini yengil qilsang ham, kam bo'lmaysan. Qolaversa, Vatanga xizmatning erta-kechi bo'lmaydi. Qishloq ham Vatanning bir bo'lagi. Sen ekan bug'doydan bir miskin bir hovuch totinsa, bu ham Vatanga xizmat, bolam. Bir boshqadan to'kilgan dondan qancha qurt-qumursqa rizqlanadi, ular ham shu Vatanning bir bo'lagi. Hozir dalaga jo'na, – deb qo'linga tugun tutadi. – Otang ham ochiqib qolgandir.

Qo'lini duoga ochganda ko'zlaridan oqayotgan yoshlar yomg'ir tomchilaridek kaftlariga to'kilayotganini ko'raman. Onam qo'llari bilan yuzlarini to'sib, go'yo mendan yig'laganini yashirib, lablarini siniq tabassum bilan siylaydi, “Bolamni O'zingni va Vatanimizni xizmatida sobit qil”, deya qayta-qayta pichirlayotganini eshitib, ko'nglim buziladi. Dalaga yo'l olaman, osmon tip-tiniq bahor paytlari, ayniqsa, bizning qishloq ajib bir tarovat kasb etadi. Samo etagida botib borayotgan quyosh ufqni alvon rangga bo'yaydi. Qaldirg'ochlar chug'uriga anhorning shildirab jilolanishi qo'shilib, tabiat o'zi anglamagan holda go'zal hodisa, kuy yaratadi. Maysalar shivirlashi go'yo yangi she'rlar hadya qilayotgandek. Aytgancha, kaminangiz adabiyotning muxlisi bo'lib, ora-sirada she'rlar qoralab turardi. Yozganlari gazeta-jurnallarda bosilib, odamlar orasida “shoir bola” degan nom orttirgan. Dalaga kun g'urubga enib ketganda yetdim. Otam ekinlarga quloq tarayapti, ora-sirada yo'talib qo'yadi. Otamni hech bunaqa charchoq holda ko'rmagandim. Ko'nglimni yana qorong'ilik qoplab oldi. Ketaman, otamni ham, o'zimni ham bu qora mehnatdan, kambag'alchilikdan olib chiqaman.

Baribir ketdim! Qishlog'idan to'rt qadam nari chiqmagan yosh yigitcha uchun bu tanlov ancha og'ir ekanini, Moskovning sovuq ko'chalarida og'ir mehnatda, burda nonga zor bo'lib, Vatan sog'inchi, so'nib borayotgan orzular iskanjasida qolganimgagina onamning nima uchun “ketma” deb zorlanganini tushunib yetdim. Begona nigohlarning sovuq boqishlari, konteynerlarning zax o'tib ketgan to'shaklarida go'yo bu yerlarda abadiy qolib ketadigandek tushunarsiz xayollar qurshovida o'tayotgan kunlar yillarga aylanardi.

Tun yarim, ayoz mehrini bizdan zarracha bo'lsa ham ayagani yo'q. Konteynerda besh musofir jon saqlaymiz. Havo har kungidan-da sovuqroq, jonimizga ora kirib turgan xona pechlari zo'rg'a konteynerni ilitib turibdi. Birdan chiroq o'chdi. Momaqaldiroq gumburlagandek nimaningdir ovozi keldi, anglolmadim, biron yer portladimi, guldurakmi? E'tibor bermadim, yonib qolar.

Xonamiz sovigandan sovib ketdi. Qaltiray boshladim, oyoqlarim uvushib qolgan, kaftlarimga kuflab biroz o'ranib yotdim, foydasi bo'lmadi. Ko'chaga qaradim, hamma yoq zimiston, qor bo'ralab uryapti. Hamma uyquda, oyoqlarini qunishtirgancha ko'rpaga o'ranib, g'ujanak bo'lib qolgan. “Odam uxlaganda yarim o'lik”, derdilar otam. Yana biron baxtsiz hodisa ro'y bermasin deb, xonadoshlarimni birin-ketin uyg'otdim.



Sovuq qotib ketganidan zo'rg'a ko'zlarini ochdi.

– Chiroq o'chib qoldi, muzlab qolasizlar, uyg'oning!

– Qo'ysang-chi, hozir yonadi, ertalab ishga borish kerak, yotib uxlasang bo'lmaydimi?

– Ertalab kelmasa-chi, – dedim qayg'uli ohangda...

Baribir uyg'otdim. Qalin kiyimlarimizni qat-qat kiyib, ko'rpalarimizga o'ranib oldik. “Bu o'lgur svetga nima jin urdi-ya, Moskovda ham o'charkanda?” deb qoldi Salim bobo. Salim bobo yoshi elliklardan oshgan, hayot tashvishlari ancha charchatib qo'ygan odam, umrining yarmini shu musofir yurtlarda qora mehnat bilan o'tkazib kelyapti. Qo'lidan ishini oladigani yo'q. Qizlarining bo'yi yetib qolgan, ularga to'y, sarpo-suruq degandek, bor mas'uliyat shu odamning yelkasida. Bizning oshpazimiz.

– Qani she'r o'qing, shoir, – dedi Salim bobo. Bolaligimda men ham ko'p she'r, dostonlarni yoddan bilardim. Yoshlik zo'rda, hamma narsa yarashadi.

– Vazifasi nima shu shoir zotining, – deb birdan so'rab qoldi Jo'ra, – dunyoda hammaning o'z vazifasi bor, shoirning, adabiyotingning vazifasi nima?

– Seni g'aflatdan uyg'otish, – dedim jiddiy ohangda.

Yoqamga yopishdi.

– Basharangni yorib qo'yaman, tirrancha, sendan besh yosh kattaman, otangni borib senlaysan, tushundingmi?

Jo'ra maktabni ham zo'rg'a tugatgan, qo'rs, yolg'onchi, hayotda uning uchun adolat yo'q, hamma narsaning yomon tomonini ko'radi, bazaning qo'lga tekkan buyumini sotgan. Salim bobo bizni ajratadi, qo'yinglar, nima keragi bor janjalning. Salim bobo “she'r o'qi”, deydi, yana men she'r o'qiyman: qishloq, keng dalalar, ota-onam. Ular jim tinglashadi, hatto, Jo'ra ham endi sokinlashib qolgan. Sovuq jon-jonimizdan o'ta boshladi. Chiroq kelishidan darak yo'q. Oltiga uch metr kattalikdagi vagon ichida besh musofir sakrab, o'tirib-turib jon saqlaymiz. Hamma she'r aytishga tushdi, kimdir yoshligida yod olgan she'rlarini aytsa, boshqasi bolaligi haqida gapirib berardi. Hammasining hayotini ajoyib asar qilgulik, yuragi tosh qotgan Jo'ra ham kimnidir sevgan, sog'ingan. Tongni she'r bilan ottirdik. Saharlab ish-ishimizga jo'nab ketgandan so'ng sovuq xabardan qotib qoldim. Kecha tok stansiyasi portlagan, qo'shni vagondagi musofirlarning ham xuddi bizdek chirog'i o'chgan, yomoni esa ular shirin uyqusidan uyg'onolmagan.

*Hali ham sovuqdir shimol, do'stlarim,*

*Hali ham bir g'aflat quvar erlarni.*

*Ayozda chiroqsiz qoldirma, Tangrim,*

*Shoiri yo'q konteynerlarni.*

(Mansur JUMAYEV)

Jo'ra yelkamga qo'llarini qo'ydi:

– Tushundim shoirning vazifasini, tushundim! Sen o'z vazifangni a'lo darajada bajarding.

Aslida hammaning o'z vazifasi bor. Eng ulug' vazifamiz esa Vatan oldidagi burchimizdir. Mana, o'sha voqealarga ham besh yil to'libdi. Qishloqqa qaytgach, hayotimni bu ko'rinishda davom ettirib bo'lmasligini tushunib yetdim. Musofir shaharda yurgan kezlarim ijtimoiy tarmoqlar orqali do'stlar topgandim. Ular bilan she'r, ijod haqida ko'p suhbatlashardik. Vatanga qaytgach, ularni topdim. Hayotim o'zgarib ketdi. Gazeta-jurnallarda she'rlarim bosildi, talaba bo'ldim.

Bugun ham yangi bir ishxonaning derazasidan boqib, olis bolaligim, orzularim, onam haqida o'ylab o'tiribman. “O'zing va Vatanning xizmatida sobit qil”, deya pichirlayapman o'zimga o'zim.

**Muhammadali G'AFFOROV,**  
“Vatanparvar”



27-mart – Xalqaro teatr kuni

# MA'RIFAT VA TARBIYA O'CHOG'I

Har yili 27-mart sanasi xalqaro miqyosda teatr san'ati xodimlarining kasb bayrami sifatida keng nishonlanadi. Sana munosabati bilan milliy qahramonlarimiz jasorati, Vatanga sadoqati, qolaversa, jamiyatda uchraydigan ijtimoiy muammolarni sahna ko'rinishlari orqali keng jamoatchilikka yetkazishni maqsad qilgan "Turon" davlat harbiy teatri ijodkorlari faoliyati bilan tanishdik.



bosqich talabalari orasidan yuzlab bo'lajak kadrlar orasidan kuchli raqobat va tanlov asosida sanoqlilari stajirovka o'tash uchun saralab olinadi. Harbiy teatrdan ishlashga talab va ishtiyoq juda yuqori.

Yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasini oshirishda shonli kechmish, urushlarni jangovar san'at darajasiga olib chiqqan jasur sarkardalarimizning beqiyos o'rni bor. Keyingi 7 yilda teatr jamoasi tomonidan Vatanimiz tarixi, uning mustaqilligi yo'lida jon fido etgan hamyurtlarimiz jasoratini madh etuvchi "Amir Temur", "Bibixonim", "Jaloliddin Manguberdi", "Shikor", "Bardosh", "Men harbiyman" singari spektakllar sahna yuzini ko'rdi. Harbiy-vatanparvarlik ruhiga yo'g'rilgan



Mudofaa vazirligi Ma'naviyat va ma'rifat departamenti huzuridagi "Turon" davlat harbiy teatri yurtimiz mustaqillikka erishganidan so'ng birinchi ochilgan harbiy teatr hisoblanadi. Ushbu teatr harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari, Qurolli Kuchlar xizmatchilari, ayniqsa, o'sib kelayotgan yoshlarni sahna asarlaridan bahramand etish orqali ularni vatanparvarlik tuyg'ularini yanada oshirishga xizmat qiladi. MDH mamlakatlari orasida Rossiya va Belarusdan boshqa birorta respublikada hali bunday davlat muassasasi mavjud emasligi harbiy teatr tashkil etish nechog'li murakkabligini ko'rsatadi.

2018-yili tashkil etilgan ushbu ma'rifat maskaniga qo'shni Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmanistondan tashqari, AQSh, Fransiya, Kanada, Yaponiya, Hindiston kabi davlatlardan soha mutaxassislari kelib, teatr faoliyati bilan yaqindan tanishgan va ilg'or ish tajribasini o'rgangan. Hozirgi kunda mazkur harbiy teatrdan faoliyat yuritayotgan taniqli aktyor va aktrisalardan Ilmira Rahimjonova,

Gulxumor Abdullayeva, Shoir Isaxonova, Feruza Sobitova, Jamila G'afurova, Erkin Bozorov, Nargiza Salmonova, Manuchehr Qalandarzoda, Husan Rashidovni misol qilib keltirish mumkin.

Teatr aktyorlari xorijlik hamkasblari bilan hamkorlikda qator spektakllar ijro etgan. Xalqaro miqyosda mazkur teatr tomonidan sahnalashtirilgan "O'lan" spektakli "Eng yaxshi musiqali drama" sifatida butunjahon teatr festivalining gran-prisiga sazovor bo'lgan. Qozog'istonda namoyish etilgan "To'maris" spektaklidagi roli uchun "Turon" davlat harbiy teatri aktrisasi, "Do'stlik" ordeni sohibi Ilmira Rahimjonova "Eng yaxshi aktrisa" mukofoti bilan taqdirlangan.

– Harbiy teatrdan boshqalardan ajratib turadigan farqi shuki, unda aktyor nafaqat raqs yoki qo'shiq aytish, balki soz chalish

va sportchi ham bo'lishi kerak. Harbiy teatrdagi jonli ijro qo'shiq, raqs, soz va jismoniy elementlar hamohangligini talab etadi, – deydi "Turon" davlat harbiy teatri bosh rejissyori Sayfiddin Meliyev. – Harbiy teatrdan o'ziga xos ijodiy maktab yaratilgan bo'lib, iste'dodli aktyor Erkin Bozorov, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi Aysanem Yusupova ana shu muhitda tarbiyalangan umidli yoshlar sirasiga kiradi. Har yili O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti bitiruvchi

50 ga yaqin spektakl harbiy qism va muassasalarda, viloyat teatrlarida, olis qishloqlarda o'n mingdan ortiq marta qo'yildi. Teatr yuzdan ortiq kostyum, tarixiy buyum va teatr san'atiga oid kitoblarni fondiga ega.

2024-yil so'ngida teatr jamoasida o'zining muhtasham binosi hamda 277 o'ringa mo'ljallangan katta zaliga ega bo'ldi. Bu yerda jonli ijrodagi konsert dasturlari va teatr tomoshalarini namoyish etish uchun barcha zarur sharoitlar yaratilgan. Albatta, mazkur bu imkoniyatlar nafaqat harbiylarimizga, balki butun xalqimizga xizmat qiladi. Qolaversa, yoshlar uchun ezgulikka yetaklaydigan ma'rifat o'chog'i, teatr an'analarini davom ettirib, yuksak ma'naviyatli avlodni tarbiyalaydigan maskanga aylanadi.

**Katta leytenant  
Dilshod RO'ZIQULOV,  
"Vatanparvar"**



## Hikoya

Harbiy qismga kirgan bolalar chug'urflashib samolyot maketi tomonga yugurdilar. Bolalar bilan uchrashishi kerak bo'lgan uchuvchi ularga qarab bir chekkada turib qoldi. Muallima opa uning yoniga borgan edi, bolalar qushlardek duvillashib, ularning oldiga kelishdi.

Kichkinalar erkalani, ofitserning qo'lidan tutib oldilar. Ustoz ofitserni tanishtirgan zahoti o'zlari chizgan rasmlarni uning qo'lga tutqaza boshladilar.

– Hoy, omon bo'lgurlar, sovg'a ham shunaqa beriladimi, – dedi muallima opa kula-kula.

Arslon rasmlarni birma-bir ko'rdi, biriga uzoq tikilib qoldi. Unda uchib ketayotgan samolyot ichidagi ikki kishi tasvirlangan edi. Rasmni alohida ajratib oldi. Atrofini o'rab olgan bolalar bir-birlariga navbat bermay chug'urflashib, uni savolga ko'mib tashladilar. Savollari ham o'zlari kabi samimiy, beg'ubor. Siz qanaqa bola bo'lgansiz? Bu savol shunchalar sodda ediki, ammo Arslon uchun javobi og'ir keldi. U o'z bolalariga ham bolaligi haqida gapirib bermagan, bolalikdan qochar edi...

Javob berishdan avval biroz tin oldi, unga diqqat bilan tikilib turgan bolalarga

darhol otasining ko'zidan pana joyga o'tib, ovoz chiqarmay o'tirishardi. Araqdan sherlangan otasi g'azab bilan so'kinar, "Begimoooy!" deya xotinini chaqirardi. Shunday paytlari bolakay bir nuqtaga tikilib qolgan onasining bo'ynidan mahkam quchib olar, uning gursillab urayotgan yurak sasini mitti tanasida his qilardi. Bundan uning ham jajji yurakchasiga qo'rquv oralardi. Va har doim bir savolni berar edi:

– Otam nega bizni yomon ko'radi?  
– Yo'q-yo'q, u bizni yomon ko'rmaydi, xasta-da, ichganida o'zini bilmay qoladi.  
– Ichmasa nima bo'ladi?  
– Otang xasta... aslida u seni yaxshi ko'radi.  
– Aldayapsiz, yaxshi ko'rmaydi. Yaxshi ko'rganida, jo'ralarimning otasiga o'xshab o'yinchoqlar olib berardi, shaharga tomoshaga olib borardi. Men hecham

Yanayam ozib ketdi. Otasiga insof kirib, ichmay qo'ydi. Shunday kunlarning birida qarindoshlari kasal ziyoratiga kelishdi. Ayolning so'niq ko'zlariga nur ingandek bo'ldi. Ikki yangasi biroz o'tirgach, biri hovli tozalab, ikkinchisi olib kelgan narsalaridan ovqat qilishga tushdi. Erkaklar bir so'z qotmay, singilning yonida chordona qurib, yerga qarab o'tirishdi. Ketayotganlarida ayolning yostig'i ostiga pul qo'yishdi.

Ertasi kuni tongda onasi otasini yoniga chaqirib dedi:

– Shaharga tushaman degan edingiz, ro'zg'orda ham hech vaqo yo'q, Arslon ham yotib qolganimdan beri tuzukroq ovqatlanmadi. Tovuqlarni sotib, biroz yig'gan pulim bor, shuni oling. Keyin... bolamga o'zi uchadigan samolyot ham oling. Dorilardan avval o'sha samolyotni oling, qachondan beri so'raydi, bolaginam bir sevsin.

Begimoyda akalari tashlab ketgan puldan boshqa pul yo'q edi. Shunchaki eri aynib qolmasligi uchun "tovuq sotib yig'gan pulim" deb qo'yaqoldi. Onasining gapini eshitgan Arslon irg'ib o'rnidan turdida, "Ota, qarang, o'zi uchadigan samolyot bor-ku, bunaqa uchadi", deb qo'llarini yoyib, aylanib, ko'rsata boshladi. Ayol yotgan joyida bolasiga qarab, siniqqina jilmaydi.

Sal o'tmay, hovliga odamlar yig'ildi. Bolani hech kim ovuta olmadi. Uning dunyosi yiqilgan edi. Bu g'amga mitti jonning bardoshi yetmay, yig'iga zo'r berdi. Holdan toydi, yotib qoldi. Uyqusida ham xo'rsinib qo'yardi. Kimdir sochlarini silayotganida uyg'onib ketdi. Daf'atan, qayerda ekanligini bilmadi. Ko'zlarini kattaroq ochdi, qarshisida muallimasi turardi. Ayol uni bag'riga bosgan edi, yig'lab yubordi, o'ksib-o'ksib yig'lar ekan, "Menga o'zi uchadigan samolyot kerak emas, onam sog'ayib ketsa, bo'ldi" deganida muallimasi titrab ketdi, uni mahkamroq bag'riga bosdi. Shu-shu, bu xonadon uning ikkinchi uyi bo'lib qoldi.

Begimoyning ma'rakasi kuni Arslonning muallimasi ham keldi. U boshqa ayollar qatoriga borib o'tirmadi, to'g'ri bolaning otasi qarshisiga bordi. Unga boshdan-oyoq qaradi. Hangomatalablarning qulog'i ding bo'ldi. Erkak o'ng'aysizlandi. G'oldirab, rahmat aytgan bo'ldi.

– Qachonlardir sendan umidlarim katta bo'lgan, – dedi ayol uning ko'zlariga tik qarab. – Armiyadan boshqa odam bo'lib qaytding, u yerda sen kabi qiynalgan yo'qmi? Ko'pga

# O'ZI UCHAR SAMOLYOT

bir-bir nazar soldi. Ular orasida biri... ozg'in, yupun, nigohlari siniq, yuzida, qo'lchalarida jarohat izlari bor. Juda tanishdek. Yuragi similladi. Unga bolaligi qarab turgandek edi. Araqqa g'arq bo'lgan bolaligi, araq shishasi parchalaridan yaralangan bolaligi. Sochi supurgi, qo'li kosov, kaltakdan boshi chiqmagan, taqdiriga mutelik bilan ko'nib, kun ko'rib, kuni ro'shnolik ko'rmay, qirqqa ham yetmay, jimgina so'ngan ona edi bolaligi. Obiyovg'onga ham zor o'tgan kunlar edi bolalik.

Faqat bir quvonch bor edi, uning ham g'arib kulbasi ustidan uchib o'tadigan samolyot. Ovozini eshitganida o'z-o'zidan sevinib ketar, ortidan yugurib kuzatardi, chillakdek qo'llarini osmonga ko'tarib, tutib qolmoqchidek talpinardi. Oddiy taxta siniqlaridan samolyotlar yasas, rasmini ko'zlari yumuq holida ham chiza olar edi. Onasi maqtab qo'ysa bas, orzularini aytishga tushardi.

– Katta bo'lsam, sizni bu yerlardan olib ketaman, uydin ham katta samolyotim bo'ladi, sizni yonimga o'tqizdirib, uchilib ketamiz.

Shunda onasi qilayotgan yumushini tashlab, uni bag'riga bosardi. Tuproq, xas-xashak, tutun hidi keladigan qoqsuyak bu bag'irda ilohiy huzur bor edi. U bor uchun g'ariblikni sezmasdi, araqqo'r otaning zulmidan qochadigan joy ham ana shu qoqsuyak bag'ir edi. Kaltaklarga o'zi nishon bo'lsa ham, bolasini bag'riga yashirardi. Dalaga tutash tomorqadan sas chiqarmay yugurib, tutzorga yetib olardilar. Bu yerda osongina bekinish mumkin edi. Qo'shnilar aralashib charchagan, qarindoshlar kelmay qo'ygan, araqqo'rdan hamma o'zini tortardi. Eng yaxshisi tutzor edi. Bir so'z demay, bir-birini quchib o'tirar, erkakning ovozi tingach, sekin yashirinib turgan joylaridan chiqib, o'tin-cho'p terib, uyga qaytishardi.

Ichmagan vaqti otasi har xil yumushlarga andarmon bo'lar, uyda ham xotirjamlik bo'lib qolardi. Arslon onasining mayda-chuyda yumushlariga ko'maklashar, samolyotlarini o'ynar, rasmlar chizardi. Biroq bu xotirjamlik uzoqqa bormasdi. Bola otasining chayqalib kelayotganini ko'rgan zahoti onasining yoniga yugurar, ikkovlari

shaharni ko'rganim yo'q.

Onasining ko'zlarida miltirab turgan ko'zyoshini ko'rib, darrov ginaxonligini unutar, kaftchalari bilan yuzining ikki chakkasidan tutib, butunlay boshqa narsalarni gapirardi:

– Aldamayapsiz, aldamayapsiz, menga hech narsa kerak emas, o'yinchoqlarni o'zim ham yasay olaman. Faqat bittagina samolyotim bo'lsa edi, o'zi uchadigan, mana qarang, o'zi mana shunaqa uchadi samolyot... Va onasining quchog'idin chiqib, qo'llarini yoyganicha aylanib, samolyotning o'zi qanday uchishini ko'rsata boshlardi.

Birinchi sinfga borgan yili onasi kasal bo'lib yotib qoldi. Besh-olti kun shifoxonada ham yotib chiqdi, ammo tuzalib ketmadi.

Shu kuni bolada tinim bo'lmadi. Mashina ovozi eshitildi deguncha, otilib ko'chaga chiqardi.

– Ona, kech tushib qoldi, otam kelmayapti, – dedi onasiga suv tutar ekan, – shahar juda uzoqmi?

Ayol bolasining savoliga javob bermasdan, kafti bilan ko'zlarini to'sdi. Arslon sezgir edi. Darrov onasining yoniga cho'kib, yuzlarini silashga tushdi.

– Yana yig'layapsizmi? Menga samolyot kerak emas, o'zim ham yasab olaman, faqat o'zim yasaganim uchmaydi-da.

Shu payt eshik taraqlab ochildi va ostonada chayqalib otasi paydo bo'ldi. Arslonning ko'zlari dahshatdan olayib onasiga qaradi. Onasi qocholmaydi-ku, uni qanday himoya qiladi?! Dir-dir titrab dasturxondan pichoqni olib, otasiga o'qtaldi:

– Onamga yaqinlashsangiz, o'zingizdan ko'ring...

– Voy tirranacha-yey, sen hali o'z otangga pichoq o'q'talapsanmi? – deb bir qadam qo'ygan edi Begimoy sog' odamdek o'rnidan otilib turdi, bolasini orqasiga yashirar ekan, dasturxondagi taxtachani olib, erining yuziga urdi. Mast erkakka bu chivin chaqqanchalik ta'sir qilmadi. O'qchib yubordi, xonani badbo'y hid tutib ketdi. Xuddi shu payt amakisi kelib qoldi. Aljirab so'kinayotgan ukasini kuch bilan tashqariga sudardi. Hayvondek yerda yumalab yotgan erkak ustidan muzdek suv quydi. Charchab uy ostonasiga o'tirib qoldi. Nima qilishga boshi qotib turganida jiyanining "Onaaa!" degan dahshatli chinqirig'i kecha bag'rini tilib yubordi. Seskanib ketdi, jon halpida ichkariga otildi va dong qotdi. Yerdan uzala tushib yotgan Begimoyda hayot asari yo'q edi. Arslonni uning bag'ridan zo'rg'a uzib oldi. Bola chinqirib yig'laganicha jon-jahdi bilan onasiga intilardi.

kelgan to'y edi-ku?! Kim senga o'xshab araqqing quli bo'ldi? Hech kim!

– Siz qonni ko'rmasangiz...

– Xotiningda nima gunoh bor edi? Yot yurtga seni u yuborgani yo'q edi... Endi o'zingni qo'lga ol! Onasiga qo'shib bolangni ham yema. Arslon kunduzi yonimda bo'ladi, kechda xohlarsa, uyiga kelsin. U uchun onasi yotgan xonani tartibga solib qo'y.

Erkak boshini solintirganicha lom-mim demadi. Biroq Arslonni o'z holiga qo'ydi. Ichkilikni tashladi. Ammo... g'isht qolipidan allaqachonlar ko'chib bo'lgan edi. Ota-bola orasi hech ilimadi.

Arslon hissiyotlariga ortiq erk bermay, so'zlay boshladi:

– Men ham siz kabi bola bo'lganman. Samolyotlarni sevdim, hozir usiz hayotimni tasavvur qila olmayman. Sakkiz yoshimda bolalik meni tark etdi. Bu juda qayg'uli hikoya. Uni tinglash sizga og'irlik qiladi. Xuddi ustozingiz kabi muallimam bor edi, u menga onalik qildi. Va men bugun qarshingizda turibman...

Bolalar chug'uri bilan vaqt ham tez o'tdi. Arslonning ham ularga atagani bor edi. O'zi bolalikda sevig' o'qigan "Dunyoning ishlari" kitobini sovg'a qildi. Rasmlar orasidan ajratib olganini yuqori ko'tarib "Buni kim chizgan?" deb so'radi. Qimtinibgina qo'lini ko'targan bolani ko'rib, hayratga tushdi. Bu o'sha, bolaligi bilan uni oniy lahzalarda yuzma-yuz qilgan nigohlari siniq bolakay edi.

– Kel yonimga, senga alohida sovg'am bor, – dedi Arslon uni yoniga chorlab va bolalarga yuzlandi, – hammangiz chiroyli rasmlar chizibsiz, bularni eng qadrli sovg'a sifatida asrayman. Biroq mana bu rasmda bolalik orzularimni ko'rdim. Shu rasm egasiga pult bilan boshqariladigan o'yinchoq samolyotni sovg'a qilaman.

Bolakayning ko'zlari porlab ketdi, sevinganidan Arslonni quchoqlab oldi. O'rtoqlarining qiy-chuvi ostida qulog'iga aytilgan gaplarni aniq-tiniq eshitdi: "Orzularingdan chekinma, hali hammasi yaxshi bo'ladi, oyingni yoningga o'tqizdirib, uzoq-uzoqlarga uchasan!" Bola jiqqa yosh to'la ko'zlari bilan uni mahkamroq quchdi.

**Inobat NODIRSHOH**



## Dunyo g'aroyibotlari

# INSONIYAT MAHSULI

## YOXUD

### “UCHBURCHAK INSHOOTLAR”

“Yer yuzidagi barcha tirik mavjudotlar vaqtdan qo‘rqadi, vaqtning o‘zi esa piramidalardan”, degan ibora bor. Darhaqiqat, suvlar qancha oqib o‘tmasin, qancha asrlar hukmronlik qilmasin, bahaybat toshli osori-atiqalar hali-hamon ilk davridagiday savlat to‘kib turibdi. Va hanuzgacha ular insoniyat uchun jumboqligicha qolmoqda. Ba‘zilar ularni o‘tmish sivilizatsiyalarining yashirin nomalari, yana birlari piramidalarni o‘zga sayyoraliklarning “ijod mahsuli” deyishsa, qolganlar ushbu ulkan mo‘jizalarning paydo bo‘lish tarixini afsonaviy Atlantida bilan bog‘lashga harakat qiladi. Xo‘sh, mazkur taxminlarning qay biri haqiqatga yaqin? Keling, hammasini bir boshidan boshlaylik.

#### MISR SIR-ASRORI

Uzoq paytlar davomida bu hayratlanarli qurilmalar sivilizatsiyasi qadimgi misrliklar tomonidan barpo etilgan deb rasmiy ravishda ta’kidlab kelinardi. Endilikda esa mazkur nuqtayi nazar ko‘plab mutaxassislarida jiddiy shubhalarni uyg‘otmoqda. Negaki, bu katta xarsang toshlar bir-biriga shunchalik mukammal yotqizilganki, ularning orasiga tig‘ ham kirmaydi, eng katta Xeops piramidasi qirralari dunyo tomonlariga to‘g‘rilab 0,1 foiz aniqlik bilan qurilgan.

Tadqiqotchilar fikricha, oddiy insonlarning bunchalik aniqlik bilan inshootlarni qurishiga ishonish qiyin. Shuning uchun hozirda ilgari surilayotgan ilmiy farazlarning biriga ko‘ra, piramidalar Yer yuzida 8-10 ming yil oldingi yuqori darajada taraqqiy etgan sivilizatsiya davrida qad ko‘targan. E’tiborlisi, farazlarga ko‘ra, o‘sha davrda Misr sahrosi iqlimi nam tropik o‘lka bo‘lgan va mazkur hududda yomg‘ir juda ko‘p yog‘gan. Yuqoridagi taxmin olimlarning sinchkovliklari tufayli vujudga kelgan: ular Buyuk sfinksda odatda sharros yomg‘irlar natijasida yuzaga keladigan vertikal yemirilish holati (*eroziya*)ni payqashgan, shamol va qum ta’sirida esa horizontal nurash kuzatiladi.

Yuqoridagi nazariy farazni dalillovchi yana bir muhim jihat bor: piramidalar vodiysining kosmosdagi fotosuratida tadqiqotchilar ikkinchi sfinksning sirtqi ko‘rinishini aniqlashga muvaffaq bo‘ldilar – ubirinchisining ro‘parasida qad rostlagan bo‘lib, butunlay tuproq ostida qolgan. Mutaxassislar zodagon ayol siymosini o‘zida ifodalagan deya taxmin qilinayotgan ushbu qurilish namunasi uzoq o‘tmishda qulagan bo‘lishi kerak.

#### “FIR’AVNLAR QARG‘ISHI”

“Misr hukmdorining maqbarasiga kirgan har bir odam o‘zini o‘limga mahkum etadi” kabi vahimali va mash‘um gap-so‘zlar o‘tgan asrdagi arxeologik topilmalardan so‘ng ayniqsa, keng tarqala boshlagan. **Har holda 1922-yili ingliz tadqiqotchisi Govard Karter tomonidan topilgan fir‘avn bola – Tutaxamon dahmasiga aynan shu “fir‘avnlarni qarg‘ishi” nomi berilgan.** O‘shanda ilmiy ekspeditsiyaning ko‘plab ishtirokchilari (*20 nafardan ortig‘i*) sag‘anadagi ishlardan so‘ng sirli holatlarda birin-ketin halok bo‘lgan. Hukmdorlar qarg‘ishi faqat Govard Karterga tegmagan, xolos, sababi 1930-yilga kelib ekspeditsiya qatnashchilaridan birgina u hali hayot edi.

Shundan so‘ng piramidalar haqida bir-biridan vahimali afsonalar to‘qila boshlandi. Biroq 1962-yilning noyabr oyida Qohira universitetining biologiya va meditsina bo‘yicha professori Aziziddin Taxa piramidalarni qazish ishlarida ishtirok etgan odamlarda nafas olish yo‘llari yallig‘lanishini keltirib chiqaruvchi virus aniqlanganini ma’lum qildi. Fir‘avnlarni mo‘miylarini tekshiruvdan o‘tkazgach esa bu turdagi yana ko‘plab bakteriyalarni topdi, darvoqe, uning fikricha, ushbu zamburug‘larning ba‘zilari 4 ming yilgacha ham umrguzaronlik qilishi mumkin ekan. Tadqiqotlardan so‘ng olim “fir‘avnlarni qarg‘ishi”ga osonlikcha antibiotiklar yordamida barham berish mumkinligini ishonch bilan aytdi. Virus nega bitta Govard Karterga ta’sir etmay qolgan, degan savolga u quyidagicha javob berdi: “Bu tadqiqotchi hamdan ham ko‘p vaqtini piramidalar

qad rostlagan Hukmdorlar vodiysida o‘tkazgan. Arxeologik qazilma ishlari davomida u boshqalarga nisbatan o‘sha yerdagi havodan ko‘proq nafas olgan, shu sabab uning organizmida asta-sekinlik bilan bakteriyaga qarshi mustahkam immunitet shakllangan”.

Markaziy Afrikadagi Port-Elizabet shifoxonasida faoliyat yuritgan tibbiyot olimi Joffri Din ko‘p sonli o‘lim holatlariga olib kelgan vaziyatning sababi ko‘rshapalak chiqindilari chirishi natijasida paydo bo‘lgan zaharli zamburug‘ changida ekanligini aytgan. Bunday xulosaga kelishga turki bo‘lgan voqea shunday ro‘y bergandi: shifokor ishlaydigan kasalxonaga qit’a g‘orlaridagi ko‘rshapalak chiqindilarini o‘rganayotgan geolog Jon Uilz og‘ir ahvolda olib kelinadi. Doktor Din oldin ham bu kabi holatlarga duch kelgandi, chunki Janubiy Amerikada ink qabilalari yashagan g‘orlarni o‘rganishda tadqiqotchilarda Jon Uilzda kuzatilgan kasallik belgilari bo‘lgan. O‘shanda bemorlarda kasallikni keltirib chiqaruvchi va ko‘rshapalaklar chiqindilarida bo‘ladigan gistoplazmolis virusi aniqlangan. Shu tariqa 1956-yili Joffri Din bu kasallikka “g‘or xastaligi” nomini berdi, bu yo‘l bilan “fir‘avnlarni qarg‘ishi”

voqeariga nuqta qo‘yishga harakat qildi. Aytgancha, Jon Uilzni u oxir-oqibat sog‘aytirib yubordi, shuningdek, mingyillik tarixga ega kasallikni ham ilmiy asoslab bergan dastlabki insonlardan biriga aylandi.

#### MASH‘UM BERMUD

Xabaringiz bor, uzoq paytlardan buyon olimlar Bermud uchburchagi, deb nomlangan hududda kema va samolyotlarning g‘oyib bo‘lishi hodisasiga jo‘yali bir izoh topib berolmayapti. Vaholanki, **ijtimoiy tarmoqlarda XX asr ikkinchi yarmining o‘zida bu falokatli joyda 1 000 nafardan ortiq inson halok bo‘lgani to‘g‘risida ma’lumotlar bor.** Ahvol hattoki o‘tgan asrning 90-yillarida AQSh gidrologik kemasida olib borilgan izlanishlar davomida “uchburchak” tubida ulkan piramida topilganidan so‘ng ham o‘zgarmadi. Ha, ha, ajablanmang. Ushbu qurilma hajmiga ko‘ra Xeops piramidasi uch barobar katta, uning chetlari shisha yoki sayqallangan sopolga o‘xshash materialdan yasalgan. Eng hayratlanarlisi, piramida qirralari okean tubidagi obyektga xos bo‘lmagan tarzda pishiq, ravshan va silliq. U eng zamonaviy uskunalar yordamida tekshirilganda esa yuzasida birorta ham chig‘ir (*yuk ko‘taradigan eng sodda g‘altakli qurilma*)lar, ajraluvchi qismlar yoki yoriqlar topilmagan. Xuddiki, piramida bir butun yaxlit xarsang toshdan yasalgandek.

**“Uchburchakli qurilmalar ishi” bilan jiddiy shug‘ullanishga qaror qilgan olimlar 2003-yilda okean tubida yana ikkita sirli piramida shaklidagi inshootlarga duch kelgan.** Okeanograf Verlag Mayer maxsus apparatura yordamida ular shishasimon moddadan tashkil topganini aniqlashga muvaffaq bo‘ldi. Ushbu suvosti piramidalari hajman Yer ustidagilardan bir necha barobar katta bo‘lsa-da, hozirgi taxminlarga ko‘ra, 500 yildan ko‘p bo‘lmagan tarixga ega. Ularni kim va nima uchun qurgani insoniyatning ochilmagan sirlaridan biri bo‘lib qolmoqda. Faqat bir narsani aniq aytish mumkin: bu

piramidalar yerliklarga hozircha noma’lum texnologiyalar asosida qurilgan.

#### YANGI TAMADDUN KURTAGIMI BU?

“Piramidalar – bu fir‘avnlarni maqbaralari”. Mazkur tushunchaga biz tarix darslaridan, sayohat ma’ruzalaridan, umumqabul qilingan ilmiy nazariyaga tayangan holda ega bo‘lganmiz. Biroq ulkan xarsang toshdan barpo etilgan inshootlar umuman boshqa maqsadlarda qurilgan bo‘lsa-chi? Mana, masalan, Rossiya Ilmiy tadqiqotlar milliy instituti xodimi Andrey Verbitskiy piramidalarni qurishdan ko‘zlangan maqsad yo‘ldoshi antennani yaratish muddaosi bilan bir xil, deya ta’kidlaydi:

– Mazkur uskunalarining ishlash tamoyili mantiqan bir-biriga juda o‘xshash, – deydi u. – Tarixchi olimlarga tushunarsiz bo‘lgan piramidalarning ichidagi bo‘lmalar, dafn xonalari va go‘yoki yana boshqa turdagi ko‘mish marosimi uchun mo‘ljallangan inshootlar aslida katta hajmdagi to‘lqin uzatkich, shleyf, ulkan rezonator, filtrlar hamda yuqori chastotali texnikada qo‘llaniladigan boshqa jihozlardir.

Tadqiqotchi shu bilan o‘z fikrini yakunlamadi. U piramidalar ulkan sayyoralararo aloqa tizimining tashkiliy qismi bo‘lganligi va ular boshqa sayyorada joylashgan xuddi shunga o‘xshash “terminal” bilan bog‘langan, degan farazni ham o‘rtaga tashlamoqda. Negaki, olis kosmos uchun ishlayotgan antennalar uchun piramida shakli muhandislik nuqtayi nazaridan olingan o‘ta aqli qarordir. Muloqot punkti vazifasini esa “dafn xonasi” o‘taydi: kosmosdan kelayotgan signalni tushunish uchun unga kirib, maqbara deb o‘ylanayotgan toshli qutiga yotishning o‘zi kifoya. Ana shunda o‘zga sayyoradan yuborilayotgan “noma”larni xuddi shunday uzatkich yordamida qabul qilish mumkin.

Aqlbovar qilmas gapga o‘xshaydi, to‘g‘rimi? Ammo kim bilsin, ehtimol, u haqdir. Balki, ayni damda ham ko‘hna “uchburchak mo‘jizalar” – piramidalar ichida Yer sayyorasidagi insonlar kabi boshqa zaminda ham hayot kechirayotgan ongli mavjudotlarning ovozi yangrayotgandir.

**Nargiza IBROHIMOVA,**  
jurnalist





## Askar bo'lar yigitning mardi



## O'G'LONLARGA YUKSAK ISHONCH

Qurolli Kuchlar davlat muzeyida Mudofaa vazirligi hamda Toshkent harbiy okrugi tasarrufidagi harbiy qism va bo'linmalarida o'z yigitlik burchini o'tagan muddatli harbiy xizmatchilarga respublikamiz oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tavsiyanomalar va namunali xizmat qilgan askarlarning ota-onalariga tashakkurnomalarni topshirish tadbiri bo'lib o'tdi.

Tadbirda Mudofaa vazirligi mas'ullari, Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi hamda Qurolli Kuchlar faxriylari ishtirok etib, matonatli o'g'lonlarning kelgusi faoliyatida muvaffaqiyat tiladi. Muddatli harbiy xizmatni namunali o'tagan harbiy xizmatchilarning ota-onalariga Toshkent harbiy okrugi qo'mondonligi nomidan tashakkurnomalar topshirildi. Shuningdek, qator harbiy qismlardagi muddatli harbiy xizmatchilarning jamoat tartibini saqlash, fuqarolar hayotini saqlab qolish kabi fidoyi

xizmatlari qo'mondon tomonidan e'tirof etilib, esdalik sovg'alar bilan rag'batlantirildi.

Xizmatni namunali o'tab, davlat test sinovlaridan muvaffaqiyatli o'tgan muddatli harbiy xizmatchilarga oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun tavsiyanomalar berildi. Bu kabi tadbirlar respublikaning barcha hududlaridagi harbiy qismlarda o'tkazilmoqda.

**Toshkent harbiy okrugi  
matbuot xizmati**

## Tibbiy ko'rik

## SALOMATLIK DARAJASI O'RGANILDI



Mamlakatimizda aholi salomatligini mustahkamlash borasida qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash maqsadida respublikamizning olis hududlarida muntazam ravishda tibbiy ko'rik, soha mutaxassislarini jalb qilgan holda uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazib kelinmoqda.

Barcha sohada bo'lgani kabi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida ham harbiy xizmatchilar va ular oila a'zolarining salomatligini mustahkamlash, turli kasalliklar kelib chiqishi va tarqalishining oldini olishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Mudofaa, Sog'liqni saqlash vazirliklari va Navoiy harbiy prokuraturasi bilan hamkorlikda Uchquduq tumanidagi harbiy qism shaxsiy tarkibi va ularning oila a'zolari uchun chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rik tashkil etildi.

Tadbirning ochilish marosimida so'zga chiqqanlar bugungi kunda harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari uchun mustahkam ijtimoiy himoyaning natijalari haqida hayotiy

misollar bilan so'z yuritdi. So'ng Uchquduq tumanidagi 36-oilaviy poliklinikada tashkil etilgan tibbiy ko'rikda jarroh, nevropatolog, okulist, travmatolog, ginekolog, endokrinolog, onkologiya yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar 150 nafardan ortiq harbiy xizmatchi oilasi va farzandlarining salomatligini o'rgandi hamda EKG va ultratovush tekshiruvi o'tkazildi.

Bu kabi tadbirlar yurt himoyachilarining oilalarida sog'lom turmush tarzini keng tatbiq etish, kasalliklarni barvaqt aniqlash va tez davolash, xastalikning surunkali holatga o'tib ketishining oldini olish hamda sog'lom avlodning dunyoga kelishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

## Qadriyat



Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug tasarrufidagi Kakaydi garnizonida joylashgan harbiy qismda Surxondaryo, Qashqadaryo va Buxoro viloyatidagi harbiy qismlarda xizmat qilayotgan harbiy xizmatchilar o'rtasida "Baxshichilik" ko'rik-tanlovining okrug bosqichi bo'lib o'tdi.

Tanlovda harbiy qism bosqichlaridan a'lo darajada o'tgan, o'z timsolida ham shoirlik, ham sozandalik, ham xonandalik mahoratini mujassam etgan 10 nafar ishtirokchi qatnashdi. Tadbirda so'zga chiqqanlar so'nggi yillarda mamlakatimiz Qurolli Kuchlari tizimida yuz berayotgan yangilanishlar Vatanimiz mudofaa qudratini yanada mustahkamlab, ko'p millatli xalqimiz osoyishtaligi va yurtimiz ravnaqi uchun xizmat qilayotganini alohida ta'kidladi. Qolaversa, an'ana va urf-odatlarini ifoda etadigan baxshichilik san'ati umumbashariy madaniyatning uzviy qismi sifatida barchamiz uchun qadri ekanini qayd etdi.

Qizg'in va murosasiz o'tgan bahslarda ishtirokchilar milliy folklorimizning durdonalari bo'lmish xalq dostonlari va termalaridan xirgoyi qilgan holda g'oliblik uchun bellashdi. Yakunda hakamlar hay'ati a'zolarining xulosasiga ko'ra, "Baxshichilik va dostonchilik san'ati yo'nalishi" bo'yicha 1-o'rin kichik serjant Rustam Bakirovga nasib etdi.

Tanlov g'oliblari Janubi-g'arbiy maxsus harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonining buyrug'i bilan pul mukofoti, esdalik sovg'alar va diplom bilan taqdirlandi.

**III darajali serjant  
Akbar AHMEDOV**

## Festival



## NAVOIYLIK YOSHLAR FAOL

Yoshlarni ona yurtga sadoqat va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan Mudofaa vazirligiga qarashli Navoiy shahrida joylashgan harbiy qism tashabbusi bilan Tomdi tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktab hamda Karmana tumanidagi 9-umumta'lim maktabida "Yangi O'zbekiston yoshlari, birlashaylik!" shiori ostida vatanparvarlik festivali o'tkazildi.

Tadbir dastlab maktabning majlislar zalida "Uch avlod uchrashuvi" hamda "Rahbar va yoshlar uchrashuvi" bilan boshlandi. Unda so'zga chiqqanlar bugungi kunda mamlakatimizda yoshlar uchun yaratilgan keng imkoniyatlar va sharoitlar, harbiylik sohasining o'ziga xos xususiyatlari haqida batafsil ma'lumotlar berdi. O'quvchi-yoshlar o'zlarini qiziqtirgan savollarga soha mutaxassislaridan javob oldi.

Maktabning markaziy maydonida davom etgan tadbirda harbiy qurol-aslahalar

ko'rgazmasi, qo'ljangi chiqishlari, faxriy qorovul va harbiy orkestr jamoasining ko'rinishlari tadbirga yanada ko'tarinkilik bag'ishladi. Tadbirda o'quvchilar uchun sport va rasm chizish bo'yicha musobaqalar tashkil etildi. Yakunda tadbirda faol ishtirok etgan bir guruh yoshlar faxriy yorliq, esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Shahnoza SULTONOVA,  
TOQQQ matbuot xizmati bosh  
mutaxassisi**





# ELNING NAFRATI O'LDIRADI

Odam safarga chiqqanda, odatda, transportda sherigi bilan suhbat quradi, shunda manzilga qanday yetib olganini sezmay qoladi. Yaqinda uch kishi ota yurtimizga keta turib, haydovchi bizga bitta sherik izlay boshladi. U bekatda turgan yoshgina juvonnini chaqirdi. Juvon bizga bir ko'z tashladi-da, puli kamligini aytdi. Biz shoshayotgandik.

– Kamini beraman, – dedim haydovchiga. – O'tiring, bizga sherik bo'lsa bo'ldi... – hazilga burdim.

Biz gapga tushib ketdik, juvonnini deyarli unutdik. Yarim yo'lga yetganda u bezovtalanib qoldi, rangi dokadek oqarib, oyoq-qo'li tortishib, tipirchilay boshladi. Biz qo'rqib ketdik, haydovchi avvaliga sal sarosimaga tushdi, keyin loqaydlik bilan mashinani yo'l chetiga oldi.

– Yoningizdami? – dedi undan jirkanganday aftiga qaramay, – faqat tez bo'ling. Juvon bo'lsa inqillab: yo'q, “tanaffus”daman... – dedi.

Biz nima bo'layotganini tushunmay, angrayib turardik.

– Sirtmoqday bo'g'ayapti... Yordam! – juvon haydovchiga yolvordi.

– E, yosh narsa... senga Xudodan boshqa kim yordam beradi? Sendaqalarni... bilasanmi, nima qilish kerak? Sirtmoqni o'zing solgansan, bo'yingga... Ey, sadqayi ayol ket! Tush, bu yog'iga, menga desa, piyoda ket, yo'qsa, ishimning barori ketadi... Juvon inqilladi:

– Men bemorman, shu dardga yo'liqqanman... – dedi u bo'zarib.

Uni bu ahvolda yo'lga tashlab ketish insofsizlik-ku, deb o'yladim nima gapligini taxmin qilib.

– Bemormish... Bunaqalarga rahm qilib, birov baraka toparmidi? – Yigit bu gapni bizga aytdimi, ungami, bilmayman... Yo'lga tushdik.

Saodat (*ismini shunday dedi*) giyohvand ekan. Aytishicha, ikki yil bo'пти turmushga chiqqaniga, eri uni shu dardga muhtalo qilgan emish. “To'ydandan keyin qattiq shamollab qoldim. Erim “igna”ga o'tirgan ekan. Tuzalasan, deb ukol qildi, keyin... o'rganib qoldim, ota-onam qilgan sep, zeb-u ziynatimni sotib bo'ldik. Davolandidim, erim hozir Toshkentda, narkologiya markazida davolanayapti. Xabar olgani kelgan edim”.

Bu hodisa bir voqeani yodimga soldi. To'g'rirog'i, bu voqea bolalik xotiramga muhrlanib qolgan, bot-bot eslayman. Negadir eslasam, ruhimda allaqanday silsila g'alayon

qiladi. Junjilib ketaman. Qishlog'imizning bir chetida hashamatli xonadon bo'lardi. (*O'shanda u qasrdek mahobatli tuyilardi!*) Odamlarning keti uzilmasdi bu xonadondan, birov to'y qilsa, tom solmoqchi bo'lsa ham, boshiga ish tushsa, aza-yu, hatto kurortga bormoqchi bo'lsa ham, shu uyga – “Selpochi” huzuriga yugurardi. U qarz berib, hojatini chiqarardi, ammo sudxo'rlik qilmasdi. Ayollar “Selpochi”ning xotini bilan sovcilikka borsa, bir borishda qishloqning old qizidan oqliq olib qaytardi. Qishlog'imizda birinchi “Pobeda” mashinasiniyam shu xonadonning yolg'iz o'g'li mingan. Ammo u erkato'y, dangasa, maishat, o'yin-kulgiga o'ch edi. Ikki qizi shunday suluv ediki, hatto qo'shni qishloq yigitlarining tinchini o'g'irlashgandi. Kechagiday esimda, kech kuz edi, qishloqda “Selpochi” qizlarini qishlog'imizga uzatarmish, non sindiribdi, ko'klam kelsa, to'y...” degan gap tarqaldi. Qanday yaxshi, biz bolalarga to'ydandan katta shodlik bormi?!

Qish adoqlab qolgandi, kuppa-kunduzi ularnikiga do'xtir, militsiya kelib qoldi. “Selpochi”ning arzanda o'g'li yomon kasalga yo'liqibdi, “nashavand bo'lib qolganmish”, degan mish-mish tarqaldi. Darhaqiqat, o'sha kuni o'g'lining oyoq-qo'lini bog'lab, Majburiy davolanish dispanseriga olib ketishdi. Rostdanam, shu voqeadan so'ng xonadonning erka o'g'li ko'rinmay qoldi, qizlari ostonaga hatlab ko'chaga chiqmay qo'ydi, er-xotin ham qorasini ko'rsatmaydi. Eng ajablanarlisi, kechagina keldi-ketdining keti uzilmagan xonadondan odamlarning oyog'i taqa-taq uzildi, hech kim bu uyga qadam bosmay qo'ydi. Odamlar yordam yo maslahat solib, “Selpochi”ga bormaydigan bo'ldi. Ko'klam keldi, ammo oilaning pariroy qizlari unashtirilgan oilalar to'ydandan og'iz ochishmas edi. O'ylasam, qishloq ahli shu tariqa giyohvandlikka o'z munosabatini bildirgan ekan! Shu tariqa boy xonadon el nazaridan qolgan ekan!

Bu aytishga oson, ammo og'ir ko'rgilik. O'sha musibatli kun keldi, bir kuni sahar turib, qishloq ahli “boyning uyi” huvillab

yotganini ko'rdi. Ular qoq tunda yengil-yelpi ko'ch-ko'ronini olib, allaqayoqqa ko'chib ketib qolishibdi. “O'riyatning toshi og'ir, or-nomusdan bosh olib ketishdi...” deyishdi odamlar. Xonadon egalari hatto mol-holini ham tashlab ketibdi. Hashamatli uy ancha vaqtgacha huvillab yotdi, hatto birov kirib tomorqasiga ekin ekmadi, tashlandiq, bo'm-bo'sh xarobaga o'xshab qoldi. Haligacha tushunmayman, negadir qo'shnisi kunduzi mollarni boqib, tunda yana uning hovlisiga, molxonasiga kiritib bog'lab ketardi. Molda nima gunoh?!

Hayot qiziq-da, kuzatganmiz, pana-pastqam, xilvat, bo'shliq joy bo'lsa, o'rgimchak to'r tashlaydi. Turmushdagi yomon illatlar ham shunday joyda qo'nim topar ekan. “Selpochi”ning xarobasi shunaga xosiyatsiz joyga aylandi. Yarim yillar o'tdi, shekilli, bir kuni yarim tunda tashlandiq uyda to's-to'polon, qiy-chuv ko'tarildi. Qo'ni-qo'shni: “Mollarga o'g'ri tushibdi, o'g'rini ushla!” deb baqir-chaqir qilib qoldi. El uyg'ondi, ko'pchilik qatori otam ham qo'liga ilingan narsani olib, o'g'rini ushlashga yugurdi. Ammo tez qaytdi. “Ey, shu paytgacha sezmabmiz-a, boy buvaning uyida u yoq-bu yoqdan kelgan besh-olti yigit nasha chekib, bangilik qilisharkan, militsiya bosibdi, degani hali-hali qulog'imda. Ertasigayoq xaroba hovli buzib tashlandi. Tomorqasi kolxozning yeriga qo'shib yuborildi. Qishloqqa tutash bog'i, azim chinorlarini mahallaning qariyalari “hay-hay”lab olib qolishdi. Yuz yoshni qoralab qolgan polvon buva: “Eh, attang! Shunday xonadonni noqobil farzand yer bilan teng qildi! Bolasiga to'g'ri tarbiya berolmasa, malomati ota-onasining gardaniga tushadi”, degani yodimda.

Elning uvog'i to'ydiradi, elning nafrati o'ldiradi, degani shu shekilli.

O'ylab qolasan kishi, odamlar bu oilani nazardan qoldirib to'g'ri qilganmidi? Nega giyohvand o'g'ilni deb, odamlarning butun oiladan, xususan “Selpochi”dan ixlosi qaytdi? Men anglagan haqiqat shuki, o'g'lining kirdikori fosh bo'lgach, odamlar masalaning ildiziga qaradi. Uni shu ko'yga solgan “Selpochi”ning beli og'rimay topgan pullari emasmi?! Bu yaqin o'tmishdagi voqea. Bugun zamon boshqacha, shahar, qishloq yoshlarining o'qishi, kasb-hunar egallashi, dam olishi, madaniy hordiq chiqarishi, xorijda ilm olishi uchun hamma shart-sharoit yaratilgan, imkoniyat eshiklari ko'p. Shaharni qo'ya turaylik, chekka qishloq oilasida ham kompyuter, uyali telefon bor. O'sha, bizning

bolaligimiz o'tgan, to'ydandan boshqa quvonchli voqea bo'lmagan qishlog'imizda bugun zamonaviy litsey, maktab, maishiy xizmat tarmog'i, dang'illama uy-joylar, qo'sha-qo'sha shaxsiy mashinalar, hashamatli stadion...

Oddiy qishloq ayoli qo'lidagi telefonda shaharda o'qiyotgan farzandi bilan har kuni suhbatlashyapti. Yashirishga ne hojat. Afsuski, shunday dorilamon zamonda ham ba'zi oila farzandlari giyohvandlikka muhtalo bo'lyapti. O'ylab ko'raylik, qaysi bir qishloq yo shaharda, qayerda ko'rgansiz giyohvand o'simlik o'sganini?! Unda yoshlar uni qayerdan, kimdan olyapti? Bir qarashda, yoshlarning har bir qadami mahalla, ota-ona, yaqinlari, qolaversa, uchastka noziri nazoratida. Shunday ekan, bu balo qayoqdan kelib chiqmoqda?

O'rni kelganda, mulohazamni aytib o'tay. Qaysi mahalla oqsoqoli yo maktab ma'muriyatidan: “Giyohvandlar bormi?” deb so'rasangiz. “Buni uchastka noziri biladi”, “Bizda bunday ro'yxat yo'q”, degan javob olasiz. Shu masala bo'yicha poytaxtimizdagi bir mahalla oqsoqoli bilan suhbatlashganimizda, u: “Hech kim yordam so'rab murojaat qilgani yo'q, dabdurustdan uyiga bostirib borsak, oilaning sha'niga dog' tushirgan bo'lmaymizmi?!” deb javob berdi. Mahallamizda, ahyon-ahyonda bo'lsa-da, kimdir giyohvandlikka moyilligini, har xil odamlar uni yo'qlab kelishini sezamiz. Yaqinlarimiz, farzandimizni undan himoyalash uchun: “Eshmatdan nariroq yur, shuning oyoq olishi menga yoqmaydi, aftini qara...” deymiz. Ammo shundan nariga o'tmaymiz, aralashmaymiz, qo'shnihilik-da, deymiz. Qani, o'zingiz aytinchi, qanday qilib tinch oilaning oromini buzasiz? Nima, ota-onasi shuni bilmaydimi? Biladi. Yashiradi. Qolaversa, to'g'ri yo'ldan ozganga qanday yordam berasiz? Unga doridan bo'lak yana nima kerak?

Bugun giyohvandlikka ommaning munosabati o'zgaryapti. Odamlar boshqacha fikrlay boshlayapti. Giyohvandlik kasallik ko'rinishini olib bo'ldi, bu dardga yo'liqqanlar hayotda to'g'ri yo'lni topib olishlarida siz-u bizning ko'magimizga muhtoj. Ular mutaxassislar ta'kidlayotganidek, ruhiyati darz ketgan odamlardir. Jamiyatda begona insonning o'zi yo'q, ular ham oramizdagi odamlar. To'g'ri yo'lga tushib olishiga ko'maklashish – bizning burchimiz.

Saida SAYXUN



O'zbekiston kubogi

# Eng mohir avtokross



## sportchilari

Jizzax viloyatining Jizzax shahrida joylashgan "Navro'zbuloq" poygagohida O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti tomonidan avtokross bo'yicha O'zbekiston kubogining ikkinchi (*final*) bosqichi musobaqasi o'tkazildi.

Respublikamizning turli hududlaridan qatnashgan 70 nafar sportchi "A-7", "A-8", "NU" va "Baggi" sinflarida bellashdi.

Qizg'in va murossasiz kechgan O'zbekiston kubogining 2-bosqich musobaqasi quyidagi natijalar bilan yakunlandi:

### "Baggi" sinfida:

**1-o'rin:** Ravshan Qobulov (*Shayxontohur tumani o'quv sport-texnika klubi*);

**2-o'rin:** Mirzajon Rahmatov (*Samarqand viloyati*);

**3-o'rin:** Xurshid G'aniyev (*Jizzax viloyatining "Best klub-1" jamoasi*).

### "A-7" sinfida:

**1-o'rin:** Temur Ahrorqulov (*Jizzax viloyatining "Best klub-1" jamoasi*);

**2-o'rin:** Temur Narziqulov (*Sirdaryo viloyati*);

**3-o'rin:** Ulug'bek Muxtorov (*Navoiy viloyati*).

### "A-8" sinfida:

**1-o'rin:** Furqat Ahrorqulov (*Jizzax viloyatining "Best klub-1" jamoasi*);

**2-o'rin:** Farrux Urunov (*Shayxontohur tumani o'quv sport-texnika klubi*);

**3-o'rin:** Nikolay Sayev (*Toshkent shahrining "TRG PRO" jamoasi*).

### "NU", ya'ni Milliy sinfida:

**1-o'rin:** Umid Soatov (*Toshkent shahrining "Pit Stop Premium" jamoasi*);

**2-o'rin:** Samandar Xusanov (*Jizzax viloyatining "Best klub-1" jamoasi*);

**3-o'rin:** Furqat Ahrorqulov (*Jizzax viloyatining "Best klub-1" jamoasi*).

### Umumjamoa hisobida:

**1-o'rin:** Jizzax viloyatining "Best klub-1" jamoasi;

**2-o'rin:** Toshkent shahri Shayxontohur tumani o'quv sport-texnika klubi jamoasi;

**3-o'rin:** Toshkent shahrining "Pit Stop Premium" jamoasi.

G'oliblikni va yuqori o'rinlarni qo'lga kiritgan sportchilar "Vatanparvar" tashkilotining diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Kubok Jizzax viloyatining "Best klub-1" jamoasiga nasib etdi.

O'zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko'maklashuvchi  
"Vatanparvar" tashkiloti matbuot xizmati



Ko'rik-tanlov

## Harbiy prokuror kubogi

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi va kuch tuzilmalari hamkorligida xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, gender tenglikni ta'minlash borasida "Yangi O'zbekistonning vatanparvar ayollari" shiori ostida o'tkazib kelinayotgan ko'rik-tanlovning navbatdagi manzili Namangan viloyati bo'ldi.

Unda Mudofaa, Favqulodda vaziyatlar va Ichki ishlar vazirliklari, Milliy gvardiya, DXX Chegara qo'shinlari va Xalqaro aeroportlarda xavfsizlikni ta'minlash qo'shinlari tizimidagi harbiy qism va muassasalarda xizmat qilib kelayotgan ayol harbiy xizmatchilar "Harbiy prokuror kubogi" uchun bellashdi.

Ko'rik-tanlov ishtirokchilari o'q otish sport turi, iste'dod va savol-javob shartlari bo'yicha kuch sinashdi.

Yakunda tanlov g'oliblari va faol ishtirokchilar faxriy yorliq va sovg'alar bilan taqdirlandi.

**Adliya mayori Ikrom ULKANBOYEV,**  
**Namangan harbiy prokurorining**  
**o'rinbosari**

Musobaqa

## Vatanparvar qizlar

O'zbekiston Respublikasi Harbiy prokuraturasi tomonidan kuch tuzilmalari va qator tashkilotlar bilan hamkorlikda olis maktablarning o'quvchi-qizlari o'rtasida o'tkazib kelinayotgan "Men vatanparvarman!" ko'rik-tanlovi davom etmoqda.

Tanlovning navbatdagisi Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanining olis hududida joylashgan 36, 40 va 41-umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchi-qizlari o'rtasida o'tkazildi. Unda ishtirokchilarning Vatanga muhabbat, sadoqat, buyuk ajdodlarimiz, jumladan jadidlarimizning ezgu orzu va maqsadlari aks etgan sahna ko'rinishlari, tezkor savol-

javoblardagi bilimlari barchada katta taassurot uyg'otdi.

Yakunda g'olib va sovrindorlarga faxriy yorliq va esdalik sovg'alar topshirildi.

**Adliya kapitani**  
**Yahyo SAMADOV,**  
**Chirchiq harbiy prokurorining**  
**yordamchisi**

## Ijtimoiy himoya yo'lida

Mehr-saxovat va xayriya tadbirlari xalqimizga xos azaliy an'analardan hisoblanadi.

Bu boradagi xayrli ishlar, ayniqsa yangilanish va yasharish davri bahor faslida keng miqyosda o'tkazilmoqda. Harbiy prokuratura organlari tomonidan ham respublikamiz bo'ylab shu kabi ezgu ishlar davom ettirilmoqda.

Xususan, xizmat majburiyatlarini bajarish chog'ida vafot etgan harbiylarning oila a'zolari, shuningdek ijtimoiy-moddiy ko'makka muhtoj fuqarolar, yolg'iz keksalar va nogironligi bo'lgan shaxslar holidan xabar olindi.

Samimiy muloqotlarda ularning muammolari o'rganilib, joyida hal etish choralari ko'rildi. Bundan tashqari, yashash

xonadonlarida obodonlashtirish, daraxtlarga shakl berish, ko'chat ekish va oqlash ishlari amalga oshirildi.

Shu bilan birga, imkoniyati cheklangan bolalar maktab-internatlarida konsert dasturlari tashkil etilib, tarbiyalanuvchilarga quvonch ulashildi va ularning qo'l mehnati bilan tayyorlagan buyumlari xarid qilinib, ularga motivatsiya berildi.

Bu kabi tadbirlar davom etmoqda.

**Adliya podpolkovnigi**  
**Botir SOBIROV,**  
**O'zbekiston Respublikasi Harbiy**  
**prokurorining katta yordamchisi**

Bilimdonlar bahsi

## Qizg'in bellashuvlar

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari kichik mutaxassislar tayyorlash markazida "Samarqand harbiy prokurori kubogi uchun" sportning shaxmat hamda shashka turlari bo'yicha musobaqalar bo'lib o'tadi.

Shuningdek, "Konstitutsiya bilimdoni" mavzusida "Zakovat" intellektual o'yini o'tkazildi.

O'zbekiston yoshlar ittifoqi viloyat kengashi bilan hamkorlikda tashkil etilgan bellashuvlar o'ta qizg'in kechdi. Bellashuvlar yakunida g'oliblar va faol ishtirokchilar diplom hamda esdalik sovg'alar bilan taqdirlandi.

Shu kuni markazda kitob yarmarkasi ham tashkil etildi.

**Adliya leytenanti Mirjalol MADRAHIMOV,**  
**Samarqand harbiy prokuraturasi tergovchisi**



REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA  
REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA REKLAMA



A group of five students are practicing marksmanship with air rifles in a classroom. One student on the left is in a ready stance, while others are aiming. The background features educational posters on the wall and electronic equipment on a table in the foreground.

Shu kunlarda klubda bo'lajak haydovchilarning malakasini oshirish, ularning o'quvini namunalı tashkil etish borasida ham bir qancha amaliy ishlar qilinmoqda.

Bu esa, o'z navbatida, klubda "B", "BC", "BE", "CE" toifali haydovchilar tayyorlash va qayta tayyorlashda qulay imkoniyatlarni yaratdi. Natijada o'quv-mashq avtomobillari, o'quv auditoriyasi, ma'naviyat va kompyuter xonalari, elektron o'quv qo'llanmalaridan samarali foydalanilmoqda.

Bu borada yoshlarni sportning texnik va amaliy turlariga jalb etgan holda ko'rgazmali tadbirlar va sport musobaqalarini tashkil etish ham muhim jarayonlardan biridir. Ayni paytda klub qoshida "Havo miltig'idan o'q otish", "Yozgi biatlon", "Duatlon" kabi seksiyalar faoliyati yo'lga



A photograph showing two men inside the cab of a truck. The man on the right is driving, wearing a dark jacket and a seatbelt. The man on the left is a passenger, wearing a brown jacket. The truck's interior, including the steering wheel and dashboard, is visible.

*Ushbu qutlug' ayyom  
xonadoningizga fayz-u baraka olib  
kelsin, aziz hamyurtlar!*





Ko'zgudagi biz



# SUVLAR BORMI, BIR TUSH AYTSAK...

Biz, bolalar ko'r bo'lib qolishdan qo'rqib, ariqni ifloslantirmaslikka harakat qilardik. Qo'shni kelinning ko'r bo'lmayotganiga hayron edik, chunki u boshqa narsalar qolib, chaqalog'ining tuvagini ham ariqqa to'kardi. Bu gaplardan buyon qancha suvlar oqib o'tdi... Yo'q, adashdim, qancha ariqlar chiqindiga to'lib, suv oqmay qo'ydi, desam, to'g'riroq bo'lar. Agar o'sha bolalik tushuncham bilan bugungi kunga qarasam, so'qirlarning soni judayam ko'payib ketarkan.

Yo'lning narigi yuzidagi ajnabiy yigit va qizning harakatlarini kuzatib turib, shu kabi xayollarga cho'mdim. Yigitning qo'lida suvdan bo'shagan yelim idish, tinmay u yoqdan bu yoqqa borib keladi. Bir payt qiz qo'li bilan nimanidir ko'rsatdi, yigit o'sha tomonga o'tib ketdi. Borib, ancha uzoqroqdagi "musorka"ga suv idishni tashlab keldi. Yaxshiki, ko'pchilik o'rgangan odatga muvofiq, yo'lakkami, nariroqdagi ariqqami tashlamadi qo'lidagini... O'zimcha o'yladim, ularning ham mening bobomga o'xshagan bobosi bo'lsa kerak...

Bundan ham avvalroq bir voqea sabab bobomning yuqoridagi kabi nasihatlarini eslagandim. Oyning birinchi kuni edi. Ishdan qaytar ekanmiz, hamkasbim sumkasi-yu, kiyimlarining cho'ntaklarini, xonadagi tortma borki, hammasini ag'dar-to'ntar qilib chiqdi, yangi oylik yo'l chiptasi yo'q. Eskisi turibdi, yangisini topolmaydi. "Bekatda nimanidir g'ijimlab tashlamoqchi bo'lgandim. Demak, o'sha yangi "proyezdnoy" bo'lgan. Lekin bir narsa aniq esimda, bekatda chiqindilar qutisi yo'qligi uchun, yerga tashlashga ko'nglim bo'lmay, cho'ntagimga qaytarib solib qo'ygandim". Shularni gapirib kelayotgan hamrohim, kutib turing, deb chopganicha ishxonaga kirib ketdi. Tezda qaytib tushdi, yuzida tabassum, qo'lida g'ijimlab tashlangan yangi oyning yo'l chiptasi. "Qarang, - izoh berdi u, - qo'shni xonadagi

musor chelakka tashlagan ekanman". Ikkovimiz ham yengil nafas oldik.

Bu voqeaga kimdir hamkasbimning e'tiborsizligi bilan xulosa yasas, balki. Biroq hamkasbim ham yegan muzqaymog'ining qog'ozini, ichgan suvining idishini, chaqilgan pistaning po'choqlarini, qo'yingki, zaruratsiz ashyolarning deyarli barini jamoat joylariga tashlab ketaveradigan ayrim odamlardek, qo'lidagi g'ijimlangan yo'l chiptasini shundoqqina ko'chaga tashlab yuborganida nima bo'lardi? Shular haqida o'ylab, yuz bergan voqea hikmatini amali chiroyli insonlarga berilajak ajrning ham chiroyli bo'lishiga yo'ydim.

Yana bobomni esladim - yurgan yo'llarida tosh, shox-butoq ko'rsalar, chetga surib o'tadigan, qog'oz ko'rsalar olib tandir yo o'choqqa tashlaydigan, sochilgan non burdalari, ushoqlarini erinmay terib oladigan, dilozorlikdan qattiq parhez qiladigan...

Bugun hammamiz ham qaysidir ma'noda "qo'shni kelin"ga sherikmiz, dilozormiz. Nega aynan "dilozor"? Tasavvur qilaylik, shirin xayollar bilan ketayotganimizda oyog'imiz ostiga ko'p qavatli uylardan birining derazasidan uloqtirilgan chiqindi to'la yelim xalta tushsa... Yoki hozirgina kimdir yeb, tashlab ketgan olmaningmi, bananningmi po'chog'ini bosib olib, sirpanib ketsak... Yoxud tushimni aytib kelay, deb ariq bo'yiga borsag-u, tashlangan chiqindilarning ko'pligidan yo'lini yo'qotgan suvga ko'zimiz tushsa... Dilimiz og'riydi, to'g'rimi? Dilimiz bir og'rigach, zora keyingi safar boshqalarning diliga ozor berishdan tiyilsak.

Yaqinda shunday ma'lumot o'qidim. To'g'riroq'i, internetdan olingan xabarga



ko'ra, yaponlar ajoyib chiqindi chelaklari ishlab chiqaribdi. Agar uning ichiga chiqindi tashlasangiz, minnatdorlik eshitasiz. Chelakdan chiqayotgan ovoz tartibli ekaningizni e'tirof etib, atrof-muhit ozodaligiga qo'shgan hissangiz uchun sizga tashakkur izhor etadi. Asosan, bolalarga o'rnak bo'lishi uchun o'ylab topilgan bu yangilikni, tajribani butun dunyo bo'ylab qo'llash kerakdir.

Payg'ambarimiz bir hadisi sharifda shunday marhamat qiladi: "Alloh taolo pokdir, pokizalikni yaxshi ko'radi, u tozadirki, tozalikni yaxshi ko'radi, u saxiydirki, saxiylikni yaxshi ko'radi, hovli, sahn va turarjoylaringizni toza tutinglar..."

Agar bu hadisni yaxshi uqsak va amal qilsak, chiqindi chelak bildiradigan minnatdorlikka muhtojligimiz qolmasdi. Chunki o'zimizni, atrofimizni toza tutish bilan ham Alloh rizoligiga erishish mumkinligini yuqoridagi hadisi sharif aytib turibdi. Shunday bo'lgach, bizga boshqa o'rnakning hojati bormikan?!

Zumrad VAHOBOVA

Mulohaza

## QACHON JIZ YEYMIZ?

Qishloqlardan birida yashovchi do'stimiz kuyinib yozib qoldi...

Daladan qaytayotgandim. Guzar yoniga yetganimda kimdir chaqirgani eshitildi. Ortga qarasam, ikki sinfdoshim do'kon yonidagi o'rindiqla o'tirgan ekan. Bordim, quchoqlashib ko'rishdik. Bir qishloqda yashasak-da, erta-yu kech ishda bo'lganim uchun ko'pam uchrashavermaymiz.

- Ha, ko'rinmay ketding? - so'radi Sadriddin sigaret tutatib.

- Yuribman, ish ko'p, - doimgi gapni aytdim.

- Kamoliddin o'g'liga sunnat to'yi qilganda ham kelmading, - biroz xafa bo'lganday gapga qo'shildi Jalol.

- Loviyani yig'ishtirayotgandik, kechga qolib ketdim. Bir tabriklashga o'tarmiz.

- Bo'ldi, endi borib o'tirma, u qurumsaq boshqa ziyofat bermaydi. To'yda yegan yeb qoldi, - kuldi Sadriddin.

- Undan ko'ra ko'plashib, jiz yeyishga boraylik. Anchadan beri tomoq ham taqillab

ketdi, - bo'yniga ma'nodor chertib gapirdi Jalol.

Rad etish noqulay, ichmasam-da, davralariga onda-sonda qo'shilib turaman. Lekin odatda, doim to'lov muammo bo'ladi. Ko'pchilik g'irt mast bo'lib oladi-da, "Pulim yo'q, to'layver, olasan-da", deb turaveradi.

- Mayli, biror bo'sh kun bo'lsa, borsak boraveramiz.

- E, buning bo'sh kuni yo'q baribir, doim nimanidir bahona qiladi. Yana kamiga ichmay, va'z o'qigani ortiqcha. Jalol, yaxshisi "bola puli" berilganda, o'zimiz boramiz.

- Qanaqa "bola puli"?

- Iye, shuniyam bilmaysanmi? Bolalarga davlat beradi-ku, mahalladan olasan.

Esimga Sadriddinning xotini "Erim ishsiz, o'zim bolalarga qarab o'tiraman, yordam olmasam bo'lmaydi", deb hujjat yig'ib yurganlari tushdi.

- Davlat bolangga deb bergan pulni jiz yeb, aroq ichishga sarflaysanmi? - so'radim jahl bilan.

- Hey, aqlilik qilma, baribir shu bolani boqypman. Bola puli nima ekan, qo'shni

Turdimurod onasining pensiyasi chiqqanda choyxona qiladi hamisha. Kecha eridi, maza qildik.

Velosipedni burib, sekin keta boshladim. To'g'ri, qishloqda ish ko'p emas, daromadli joylarni ham topish mushkul. Lekin men ishlayotgan dalada doim ishchi kuchi yetishmaydi. Katta pul topmayman, lekin ishlaganim bola-chaqamni boqishga yetib turibdi. Hosil ko'targanda, uch-to'rt tanga orttirib, mol-hol qilamiz, ko'mir olamiz, qishlik zaxira to'playmiz.

Qishlog'imizda ikkita do'kon, bitta oshxona bor. Pensiya, nafaqalar tarqatilganda gavjumlashib ketadi. Asosan, erkaklar. Do'konchilar eski qarzni undirib oliboq, daftardan yangi sahifa ochishadi. Oshxona o'sha kuni mast-alastga to'lib toshadi. Vaziyatdan qisman boxabar edim, lekin o'zimning do'stlarim ham shu safga qo'shilib borayotganini bilmagandim. Nahot, "bola puli", ota-onaning pensiyasiga ko'z tikadigan darajaga yetdik?

Abror ZOHIDOV





Diqqat, tanlov!

Diqqat,  
tanlov!

## JADIDLARNING MA'NAVIY

## QAHRAMONLIGI



Jadidchilik Turkiston milliy-ozodlik harakatining mafkurasi, o'lka xalqlarining mustaqillik va ma'rifatparvarlik g'oyasi sifatida shakllanib, jadidlar millatni zamonaviy taraqqiyot yo'liga olib chiqish, milliy davlat bunyod etish, zamonaviy idora usulidagi ozod va farovon jamiyat qurishni maqsad qilgan edi. Bugungi kunda O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jadidlar, xususan milliy ozodlik harakatining buyuk namoyandasi Mahmudxo'ja Behbudiyning g'oyalari asosida milliy o'zlikni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish orqali fuqarolar, qolaversa, harbiy xizmatchilarda milliy ruhni, vatanparvarlik tuyg'usini kuchaytirishni davr talab qilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-dekabrda "Turkiston jadidchilik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosi asosida O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti "Vatanparvar" birlashgan tahririyati olimlar, yozuvchi va professional ijodkorlar, jurnalistlar, harbiy xizmatchilar, respublika oliy va oliy harbiy ta'lim muassasalari mutaxassislari, tadqiqotchilar hamda nashrlarimiz o'quvchilari o'rtasida ma'rifatparvar bobolarimizning hurriyatga erishish yo'lidagi ibratli hayotini targ'ib qilish, g'oyalarini harbiy xizmatchilar, ularning oila a'zolari, yoshlar ongiga singdirish, adabiy-estetik tafakkurini shakllantirish, ularda milliy ruh, g'urur va iftixor tuyg'ularini kuchaytirish, yangi marralar sari undash maqsadida "Jadidlarning ma'naviy qahramonligi" deb nomlangan tanlovni e'lon qiladi.

## TANLOV SHARTLARI:

Tanlov uchun taqdim etilgan ijodiy ishlar – maqola, ocherk, esse va boshqa badiiy ijod namunalari 2025-yilning 10-apreldan 2025-yilning 10-avgustigacha (*word shaklida, 14 shriftida, kirill yoki lotin alifbosida*) "Vatanparvar" birlashgan tahririyatiga yuborilishi lozim.

## MANZIL:

100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy; elektron manzil: @vatanparvargazetasi\_bot yoki (90) 968-62-08 telegram manzili.

## Quyidagi hujjatlar ilova qilinishi lozim:

- muallif pasporti (*shaxsini tasdiqlovchi hujjat*) nusxasi;
- muallifning manzili va bog'lanish telefonlari;
- muallifning xizmat (*ish*) joyi.

## Murojaat uchun telefonlar:

(55) 511-25-91; (55) 511-25-82.

Eng sara ijodiy ishlar "Vatanparvar" gazetasi sahifalarida "Jadidlarning ma'naviy qahramonligi" tanlovi rukni ostida chop etiladi.

## G'OLIBLARNI MUKOFOTLASH:

## Tanlov g'oliblari quyidagi mukofotlar bilan taqdirlanadi:

- 1-o'rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 20 (*yigirma*) barobari, diplom;
- 2-o'rin (1 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 15 (*o'n besh*) barobari, diplom;
- 3-o'rin (2 ta) – bazaviy hisoblash miqdorining 10 (*o'n*) barobari, diplom.

Rag'batlantiruvchi mukofot:

- 3 ta – bazaviy hisoblash miqdorining 8 (*sakkiz*) barobari, diplom.

Tanlov natijalari "Vatanparvar" gazetasi hamda mudofaa.uz sayti va ijtimoiy tarmoqlarda e'lon qilinadi.

Tanlov g'oliblari va sovrindorlariga mukofotlar 2025-yilning 30-avgustiga qadar tantanali ravishda topshiriladi.

## "Vatanparvar" birlashgan tahririyati

@Vatanparvargazetasi\_bot  
"Vatanparvar" birlashgan tahririyati  
bilan bog'lanish uchun telegram bot



BIZ HAQIMIZDA

VATANPARVAR



MUASSIS  
O'ZBEKISTON  
RESPUBLIKASI  
MUDOFAA  
VAZIRLIGI

www.mudofaa.uz

## Tahririyat kengashi:

general-mayor Hamdam Qarshiyev  
polkovnik Otabek Yuldashev  
polkovnik Alisher Boboxonov  
Maqsud Abilov

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va mualliflarga qaytarilmaydi. Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farqlanishi mumkin. Gazeta Mudofaa vazirligi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar departamenti – "Vatanparvar" birlashgan tahririyatining kompyuter markazida sahifalandi.

## Bosh muharrir:

podpolkovnik Ahror Ochilov

ISSN 2010-5541

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 2008-yil 6-iyunda 0535 raqami bilan ro'yxatga olingan.

## Telefonlar:

kotibiyat: 55 511-25-90  
buxgalteriya: 55 511-25-76  
yuridik bo'lim: 55 511-25-72

## Navbatchi: katta leytenant Dilshod Ro'ziqulov

Sahifalovchi: Dilnoza Meliqo'ziyeva

Musahhih: Sayyora Mirzayeva

Buyurtma: V-5924

Hajmi: 6 bosma taboq

Bichimi: A3

Adadi: 33 408 nusxa

Bosishga topshirish vaqti: 14:00

Topshirildi: 14:30

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "O'zbekiston" NMIU mas'ul.

Gazeta juma kuni chiqadi.

Gazeta 1992-yilning 24-iyunidan chiqqa boshlagan.

Nashr ko'rsatkichi: 114.

Bahosi: kelishilgan narxda.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.

1 2 3 4 5 6

Manzilimiz: 100095, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Sag'bon ko'chasi, 382-uy.



t.me/mv\_vatanparvar\_uz  
t.me/mudofaavazirligi



www.mv-vatanparvar.uz  
vatanparvar-bt@umail.uz



mudofaavazirligi



mudofaavazirligi



www.youtube.com/c/UzArmiya